

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 338.49

Yusubov In'omjon Ikram o'g'li

**“Xorazm viloyati aholi turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni
rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari”**

Mutaxassislik: 5A 230102 - “Iqtisodiyot” (Ijtimoiy soha iqtisodiyoti)

Magistr ilmiy darajasini olish uchun

DISSERTATSIYA

**Ish ko'rib chiqildi va
himoyaga qo'yildi.
“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri ,
dots. Matyakubov U.R**

**Ilmiy rahbar:
i.f.n dots. Matyakubov U.R**

“ _____ ” 2017 y

Urganch – 2017 y.

XORAZM VILOYATI AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA SOTSIAL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

KIRISH.....3

I-BOB. SOTSIAL TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

- 1.1. Sotsial turizmning nazariy asoslari: asosiy tushunchalar, tarkibi va amal qilish tamoyillari.....10
- 1.2. Sotsial turizm xizmatlarini xalqaro miqyosda tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....18
- 1.3. O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari va sotsial turizmni rivojlantirish holati.....26
- I-bob bo'yicha xulosa.....35**

II – BOB. O'ZBEKISTONDA SOTSIAL TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISH HOLATI

- 2.1. O'zbekistonning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va ularning sotsial turizmni shakllantirishga ta'siri.....37
- 2.2. Sotsial turizm turlarida xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....42
- 2.3. Xorazm viloyatida turizm xizmatlar bozorining rivojlanish holati va tahlili.....51
- II-bob bo'yicha xulosa.....59**

III- BOB. XORAZM VILOYATI AHOLISI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA SOTSIAL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

- 3.1. Viloyat aholisini turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....61
- 3.2. Xorazm viloyatida oromgohlarda dam olgan bolalarning sotsial turizmdagi rolini baholash.....66
- 3.3. Xorazm viloyati aholisi turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirish istiqbollari.....74
- III-bob bo'yicha xulosa.....82**

Xulosa va takliflar.....84

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....88

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Turizm sohasi bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uzviy bog'langan, demak uning rivojlanishi transport, maishiy xizmat ko'rsatish, elektroenergiya ta'minoti, mahalliy hunarmandchilik, ovqatlanish tarmoqlari kabi sohalarning rivojlanishiga olib keladi. Turizmning iqtisodiyotga bo'lgan ijobiy ta'siri to'g'risida ko'pgina ilmiy adabiyotlarda bayon qilingan. Bu ilmiy adabiyotlarda sotsial turizm turizm sohasining bir ko'rinishi sifatidagi ma'lumotlar tor darajada berilib, uning mohiyatini to'liq anglashga imkon bermaydi. Sotsial turizmning nazariy asoslari bilan asosan chet el olimlari va rivojlangan mamlakatlarning turizm sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar shug'ullanib kelishmoqda. O'zbekistonda turizm to'g'risida mavjud o'quv va ilmiy adabiyotlarda sotsial turizm tushunchasi to'g'risida yetarlicha ma'lumot berilmagan, hatto ba'zilarida uning ta'rifi ham keltirilmagan, ya'ni atamaning o'zi turizm turi sifatida ko'rsatilgan holos. «Turizm to'g'risida»gi Qonunda, turizmni rivojlantirishning hududiy davlat dastularida ham bu turizm turi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilmagan.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i sifatida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'zining salmoqli hissasiga ega. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda «jahon yalpi mahsulotining 10.2 foizi, tovarlar va xizmatlar eksporti hajmining 7 foizi, jami xizmatlar eksporti hajmining 30 foizi, umumiy bandlik ko'rsatkichining esa 8 foizi ushbu soha hissasiga to'g'ri kelgan hamda dunyo bo'yicha har o'n birinchi yangi ish o'rni turizm sohasida yaratilgan»¹.

Turizm insonlarning dam olish vaqtlarida turistik maqsadlarda sayohatga chiqishlari hisoblanadi. Bu sayohatlarda odatda moliyaviy imkoniyatga ega bo'lgan, moliyaviy ta'minlangan aholi qatlami faol ishtirok etadi. Ammo ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan aholi guruhlari sayohatga chiqish, dam olish kabi huquqlaridan foydalanish imkoniyatlari qisman chegaralangan. Shuning uchun

¹ UNWTO Tourism Highlights 2016 Edition, p. 3 // <http://www.unwto.org>; Travel & Tourism Economic Impact 2016 World, p. 7 // <http://www.wttc.org>.

ham, Butun jahon Turizm Tashkiloti (BTT) tomonidan 1980 yilda qabul qilgan Manila deklaratsiyasida «Sotsial turizm – bu kam ta'minlangan aholining dam olishga bo'lgan huquqlaridan foydalanishi bilan bog'liq manfaatlarini himoya qilishiga qaratilgan jamiyatning maqsadidir»² deb ta'kidlangan.

Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda turizm aholining faqat boy qatlamning sayohati bo'libgina qolmay, balki odamlar hayot tarzining zaruriy qismiga aylanib qolgan. Ohirgi vaqtlarda turistik sayohatlarning katta qismi ko'proq ishchi-xodimlarning o'z ish kuchini qayta tiklash va sog'lomlashtirish (motivatsion va rekreatsion) maqsadlarida amalga oshirilmoqda. Xalqaro darajada sayohat qilayotgan turistlarning katta qismi asosan rivojlangan mamlakatlar fuqarolarini tashkil etadi. Shunki, endi rivojlanayotgan va bir iqtisodiy tuzumdan boshqasiga o'tayotgan mamlakatlar aholisi turistik sayohatga sarflanadigan mablag'ni jamg'ara olishmaydi. Ularning ishlab topgan mablag'lari ma'lum darajada yashash sharoitlarini yaxshilash uchun sarflanadi. Turizmda esa o'z mablag'larini kundalik xarajatlardan orttirgan odamgina ishtirok etish hohishini bildiradi.

Har bir qondirilgan ehtiyoj yanada kattaroq ehtiyojni hosil qilishi har bir iqtisodchiga ma'lum bo'lgan qonuniyatdir. Ammo aholining ayrim guruhlari(bolalar, yoshlar aqliy va jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar)ning ushbu ehtiyojini qondirish ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda ushbu aholi guruhlarining mazkur ehtiyojining qondirilishi turli moliyaviy manbalardan amalga oshiriladi va sotsial siyosatning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shunday ekan odamlarning sotsial turizmdagi ishtiroki orqali mamlakat quyidagi natijalarga erishish mumkin: mamlakat fuqarolarida turizmga ishtirok etish ko'nikmasining, sog'lom avlod va ma'naviy etuk mutaxassislar paydo bo'lishi, ichki turistik infratuzilmaning takomillashib borishi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning samarali amalga oshirilishi, mamlakatning turli hududida istiqomat qiluvchi odamlarning integratsiyasining tezlashishi va natijada yagona Vatan

² Организация туризма. Под ред А.П.Дуровича. Минск, ООО «Новое знание», 2006, 640 с

tushunchasining mustahkamlanishi. Yevropa Ittifoqining Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar bo'yicha komissiyasi sotsial turizmni 2006 yildan buyon yagona «Yevropa fuqaroligi»ni yaratishning bir vositasi sifatida targ'ib etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 martdagi 53-sonli «O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning ayrim masalalari to'g'risida»gi, 2015 yil 9 martdagi 51-sonli «Yo'l bo'yi va turizm infratuzilmalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur bitiruv malakaviy ishi tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda, mamlakatimizda 850dan ziyod litsenziyaga ega bo'lgan turistik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar mavjud. Aksariyat turistik firmalar va mehmonxonalar Toshkent shahrida (54%), shuningdek, Samarqand (18,5%), Buxoro (12,6%) va Xorazm (5,2%) viloyatlarida joylashgan. Bugungi kunda O'zbekiston turistik xizmatlar bozorida 20 ming nafar kishi ish bilan ta'minlangan bo'lib, ularning 466 nafari malakali gid tarjimonlardir³. Sotsial turizm xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi deganda ushbu xizmatlarni tashkil etishning huquqiy asoslari, boshqaruv strukturasi va tamoyillari, moliyalashtirish tizimi, narxlashtirish siyosati, mahsulotlarni realizatsiya qilish manbalari va tizimi tushuniladi, ya'ni sotsial turizm tizimida amal qiladigan xalqaro va mahalliy-huquqiy me'yoriy hujjatlar, boshqaruv tizimidagi yuqori tashkilotlardan quyi tashkilotlarga oid tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, xizmat ko'rsatishni moliyalashtirishning turli manbalarini va imtiyozlar hamda chegirmalar berish tartibi, sotsial turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi va iste'mol qiluvchi sub'ektlar va ob'ektlar tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tashkil etadi.

Sotsial turizm o'z ichiga bolalar, o'smir-yoshlar, talabalar, jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan odamlarning turistik sayohatlarini

³ O'zbekistonda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining ma'lumotlari.

qamrab oladi. Ularning o'ziga xos tomonlari joylashuv vositalari va tashkil etish tizimlarida hamda xizmatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, joylashuv vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bolalar oromgohlari (lagerlar), xostellar (yoshlar uchun yotoqxona tipidagi mexmonxona), sanatoriylarda (sog'lomlashtirish va rekreatsion muassasalar) aks ettiriladi.

Boshqa turistik joylashuv vositalaridan farqli ravishda bolalar oromgohlarida, xostellarda va sanatoriylarda quyidagi qo'shimcha xizmat turlari talab etiladi: *bolalar oromgohlarida* – tarbiyachilar va nazoratchilar xizmati, maxsus to'garaklar olib boruvchi pedagoglar xizmati, bolalar ovqatlanishiga xos xizmatlar turlari, yotoqxonada 2-20 kishigacha joylashuv, guruhli boshqaruv va nazorat, ma'lum bir yosh oraliqdagi bolalarning bir guruhlarga birlashtirilishi, maishiy xizmat turlarining umumiylik tamoyili asosida tashkil etilishi; *xostellarda* – ikki qavatli yotoq joylarining mavjudligi, bir xonada 2-20 kishigacha joylashish mumkinligi, maishiy xizmatlar har bir xonada emas, balki har bir qavatda yoki sektorda tashkil etilishi, boshqa joylashuv vositalarga nisbatan arzonligi; *sanatoriylarda* – davolanish xizmatlarining tashkil etilishi, doimiy vrach nazoratida bo'lish, joylashgan odamlarning jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma'lum bir qo'shimcha xizmatlarning talab etilishi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sotsial turizm va u bilan bog'liq tushunchalar Butun jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Sotsial turizmning xalqaro byurosi (BITS), Xalqaro talabalar va yoshlar assotsiatsiyasi kabi turizm sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilot a'zolari va tadqiqotchilari, turizm sohasida tadqiqot olib boruvchi rus olimlari V.Birjakov⁴, G.A.Karpova, V.S.Senin, V.A.Kvartalnov⁵, I.V.Zarin va boshqalar, O'zbekistonda turizm va uning ijtimoiy xususiyatlari bilan A.Saidov, E.V.Golo'sheva⁶, F.Komilova⁷, I.To'xliev⁸, O.Xamidov⁹, A.Norchaev¹⁰,

⁴ Биржаков М.Б. Введение в туризм. С.Пб. Издательский Торговый дом «Герда», 2006. – 400 с.

⁵ Менеджмент туризма. Под редак. В.А.Квартального – М.: Финансы и статистика, 2004. с. 160.

⁶ Гольшева Е. Развитие сферы туризма Республики Узбекистан в в период финансово-экономического кризиса//Актуальные проблемы туризма. 2010, №2 – с. 5-9.

⁷ Kamilova F.K. Xalqaro turizm bozori. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 192 b.

⁸ To'xliev I.S. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010. – 238 b.

⁹ Хамидов О.Х. Выбор конкретной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана. Диссертация на получение степени кандидата экономических наук. – С.: СамИСИ, 2006. – 155 с.

M.Mirzaev, M.Alieva kabi etakchi olimlar shug'ullanib kelmoqdalar va o'z qarashlarini turizm sohasiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarida aks ettirganlar.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishining mavzusi O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga mos keladi va Urganch Davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – Xorazm viloyati aholisi turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiya va takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- «Sotsial turizm» va «sotsial turizm xizmatlari» mohiyatini ochib berish;
- Sotsial turizm tarkibiga kiruvchi turizm turlarining tasnifini ishlab chiqish;
- Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda sotsial turizm xizmatlarining o'rnini ochib berish;
- Sotsial turizm xizmatlarini shakllantirish bo'yicha jahon tajribalarini o'rganish asosida, ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- O'zbekistonda sotsial turizm infratuzilmasini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;
- Xorazm viloyatida sotsial turizm xizmatlar bozorining rivojlanishi holatini tahlil qilish;
- Xorazm viloyati aholisi turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Kasaba Uyushmalari Xorazm viloyati bo'limiga qarashli bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari hamda

¹⁰ Norchaev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishning iqtisodiy o'sishga ta'siri (Ispaniya misolida). Nomzodlik dissertatsiyasi. TDIU, 2004 y. – 120 b.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan sanatoriyalar va dam olish uylari belgilandi.

Tadqiqotning predmeti sifatida sotsial turizm xizmatlarini amalga oshirishdagi iqtisodiy munosabatlar o'rganildi.

Tadqiqotning metodlari sifatida analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli yondoshuv kabi uslublardan, natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lganda iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullaridan, iqtisodiy-matematik va statistik usullardan ham foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari:

- «Sotsial turizm» va «sotsial turizm xizmatlari» tushunchalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi;
- Sotsial turizm tarkibiga kiruvchi turizm turlarining tasnifi keltirildi;
- Sotsial turizm xizmatlarining alohida turlarining xususiyatlari aniqlandi;
- turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: sotsial turizmning umumlashtirilgan ta'rifini ishlab chiqildi, sotsial turizm tasnifini ishlab chiqildi, sotsial turizm xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish va ularning tasnifi keltirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: sotsial turizmning O'zbekistonda mavjud tizimini tahlil qilish va natijada chiqarilgan xulosalarga asoslangan va jahon tajribalariga tayangan holda shu sohani takomillashtirishga tavsiyalar ishlab chiqildi. Bolalar yozgi oromgohlarini takomillashtirishga oid, xostellar tizimini tashkil etishga, talabalar xalqaro guvohnomasi (kartochkasi) tizimi tarkibiga kirishni tashkil etishga oid hamda sanatoriyalar faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi, O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini turizmga ishtirokini ta'minlash orqali mahalliy turistik infratuzilmani takomillashtirish, uni xalqaro talablar darajasiga yetkazish, mahalliy aholining «turizm madaniyati»ni yuksaltirishga erishishda namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi sotsial turizm xizmatlarini tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unda sotsial turizmning nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, tarkibi va amal qilish tamoyillari, sotsial turizm xizmatlarini xalqaro miqyosda tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda sotsial turizm xizmatlarini o'rniga to'xtalib o'tilgan.

Ishning ikkinchi bobida O'zbekistonning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va ularning sotsial turizmni shakllantirishga ta'siri, Sotsial turizm turlarida xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, Xorazm viloyatida turizm xizmatlar bozorining rivojlanish holati va tahlili yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida Xorazm viloyati aholisini turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, hamda aholini turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirish istiqbollari yoritib berilgan.

Ishning xulosa qismida tadqiqot natijasida olingan asosiy xulosalar va nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar yozildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari Urganch Davlat universiteti Turizm va iqtisodiyot fakulteti Turizm kafedrasiga, Xorazm viloyati Kasaba uyushmalari federatsiyasida qabul qilindi.

I- BOB. SOTSIAL TURIZM XIZMATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Sotsial turizmning nazariy asoslari: asosiy tushunchalar, tarkibi va amal qilish tamoyillari

Hozirgi davrda turizm mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadigan, byudjet daromadlariga muayyan hissa qo'shadigan sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohaning rivojlanishi mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi jarayonining jadallashishiga, ichki iqtisodiy tuzilmalarning takomillashishiga, turizm bilan bog'liq ravishda faoliyat olib boruvchi sohalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ammo sayohat qilish, doimiy yashash joyidan boshqa joyda dam olish, yangi hududlarni ko'rish yoki shifobaxsh hududlarda salomatligini tiklash uchun katta moliyaviy mablag'lar talab etiladi. Bu mablag'lar kerakli manzilga yetib borish, tunab qolish va joylashish, ovqatlanish va shu kabi turli xizmatlardan foydalanganligi uchun sarflanadi. Demak, sayohat qilish imkoniyatiga faqat moliyaviy ta'minlangan aholigina ega bo'ladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari esa bu huquqdan foydalana olmaydi. Dam olish yoki sog'lomlashtirish uchun ular mablag'ni qaerdan va kimdan olishlari kerak? Bu muammoni hal qilishda qisman davlatning ijtimoiy himoya siyosatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ammo bozor iqtisodiyoti munosabatlari, ob'ektiv ravishda, davlat byudjet mablag'larida ijtimoiy xarajatlarga ajratilgan qismining kamayishiga olib keladi. Ushbu sharoitda aholi o'zining dam olish huquqini qay tarzda amalga oshirishi mumkin? Rivojlangan mamlakatlarda ushbu aholi guruhlariga maxsus sayohatlar uyushtirish tizimlari mavjud va ular orqali turizm xizmatlari aynan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ko'rsatilishi ta'minlanadi.

Turizmning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rnini belgilaydigan bo'lsak, uning ijtimoiy tomonlarini, inson hayoti, turmush darajasi, shaxs sifatida shakllanishiga ta'sirini chetlab o'tmasligimiz kerak bo'ladi. Shubhasizki, sotsial turizmning rivoji ham mamlakat aholisining turmush tarziga, ham hudud iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ijtimoiy beqarorlikning pasayishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda

mavjud va to'liq foydalanilmaydigan turistik resurslarni rivojlanishi, mamlakat obro'-e'tiborining ortishida namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, «sotsial turizm» bu «ijtimoiy turizm» emas. Chunki “ijtimoiy” so'zining lug'aviy ma'nosi “inson va jamiyat hayotiga oid”¹¹ deb, “sotsial” so'zining lug'aviy ma'nosi esa “kishilar hayotiga, ularning jamiyatdagi o'zaro munosabatlariga oid”¹² deb izohlanadi. Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «ijtimoiy turizm» deganda jamiyat a'zolarining sayohat qilishlarini tushunish mumkin, bu guruhga aholining barcha qatlamlari, ya'ni jamiyatning barcha a'zolari kiritiladi, uni «jamoaviy» atamasi bilan birlashtirish mumkin. Ammo «sotsial turizm» deganda faqat ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining turistik sayohatlari tushuniladi, uning «ijtimoiy turizm» tushunchasidan farqlaydigan asosiy belgisi turistik sayohatlarni moliyalashtirishning qisman iste'molchi tomonidan qoplanishi, yoki umuman to'lanmasligidir. Shu sababli kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining imtiyozli asosda turistik sayohatlarini amalga oshirish tizimini «sotsial turizm» deb atash mumkin. Bu yerda reklama-targ'ibot maqsadidagi turistik sayohatlar bundan mustasno, chunki moliyalashtirish nuqtai nazardan sotsial turizmga mos kelsa ham maqsad jihatidan unga mos kelmaydi. Sotsial turizmning asosiy maqsadi kam ta'minlangan aholi qatlamlariga dam olish, sayohat qilish va sog'liqni tiklash imkoniyatlaridan va bu boradagi huquqlaridan to'liq foydalanish hisoblanadi.

Sotsial turizm atamasi 1963 yildan buyon ishlatilayotganligiga qaramasdan, uning dastlabki ta'rifi 1980 yilda Xalqaro turistik tashkilotning Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan Manila deklaratsiyasida izoh berilgan edi, ya'ni **«Sotsial turizm** – bu jamiyatning kam ta'minlangan fuqarolarining dam olish

¹¹ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. II. E-M.G' Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. - T. “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b. (177 betda)

¹² O'zbeki tilining izohli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. III. N-Tartibli.G' Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. - T. “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 688 b. (556 betda)

huquqlaridan foydalanishdagi manfaatlariga qaratilgan maqsadidir»¹³ deb ta'kidlangan. Unga asosan, sotsial turizmga, masalan, kasaba uyushmalari tomonidan moliyalashtiriladigan turizmning barcha tur va ko'rinishlari kiritilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sotsial turizm – bu davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning bir qismi bo'lib, unga uni aholining ishga layoqatli va layoqatsiz qatlamlari orasidagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish chorasi sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sotsial turizmning rivojlanish darajasi, uning umumiy turistik xizmatlar hajmidagi ulushi ushbu jamiyatdagi ijtimoiy siyosat natijalarini aks ettiradi.

Kam ta'minlangan fuqarolarga sotsial turizm xizmatlarini tashkillashtirish o'zining tarixiy asoslari bilan XIX asrga borib taqaladi. Bu davrda Yevropa mamlakatlarida yozgi lagerlar (1875 yil) va oilaviy pansionatlar (1890 yil) tashkil etila boshlangan. Turistlar kontingenti asosan nafaqaxo'rlar, nogironlar, o'smirlar, ko'p farzandli oilalar hisobidan shakllangan. Bu sayohatlar uyushtirilgan holda tashkil etilgan bo'lib, sotsial turizm sub'ektlari manfaatlariga mos kelgan: iste'molchilar to'lovga qobiliyatining pastligini hisobga olib, dam olishni tashkillashtirish hamda turistik xizmatlarni yetkazuvchilar manfaatini hisobga olib, mavsumiylikni tekislashga, joylashtirish, transport, ovqatlanish ob'ektlari quvvatining to'liq ishlatilishini ta'minlash.

1963 yilda Bryusselda Sotsial turizmning xalqaro byurosi (BITS, UNWTO tarkibida) tashkil etilgan. BITS va UNWTOlarning hamkorlikdagi urinishlari natijasida, Manila deklaratsiyasida sotsial turizmning asosiy maqsadi belgilandi. Sotsial turizm tushunchasi ta'rifini berish bo'yicha 2ta yo'nalish mavjud – keng va tor. Ularning asosini Xalqaro turistik tashkilotining Bryusselda (1963 yil), Manilada (1980 yil), Akapul'koda (1982 yil), Sofiyada (1985 yil), Gaagada (1989 yil), Monrealda (1996 yil), Sankt-Peterburgda (1997 yil) qabul qilingan deklaratsiyalar tashkil etadi.

¹³ Манильская декларация по мировому туризму. 10 октября 1980 г. принята Всемирной конференцией по туризму, проходившей в Маниле (Филиппины) с 27 сентября по 10 октября 1980 г. Декларация А, статья 10.

Inson huquqlarining Butundunyo deklaratsiyasida, keyinchalik Monrealda qabul qilingan «Turizmning gumanitar va ijtimoiy o'rni» nomli deklaratsiyasida (Sotsial turizm bo'yicha Xalqaro byuro (BITS)ning 1996 yilda o'tkazilgan Bosh assambleyasida) sotsial turizmning bosh tamoyili «aholining barcha qatlamlari uchun sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash» deb, «sotsial turizm»ning mavqei va ushbu faoliyatning bosh maqsadi qilib esa, maksimal miqdordagi odamlarga sayohatlar va turizmda ishtirok etish imkonini yaratish deb belgilandi¹⁴.

Turistik faoliyatning sotsial turizmga aloqadorligi quyidagi belgilar bilan izohlanadi: ijtimoiy, gumanitar, madaniy-ma'rifiy masalalarning bir vaqtning o'zida yechimining topilishi; maqsadli mijozga, ya'ni faqat turistik mahsulotni bozor sharoitlarida xarid qila olmaydigan aholi qatlamlariga qaratilganligi; narxlarning belgilangan ijtimoiy maqsadlarga mosligi, ya'ni iste'mol uchun qulay qiymatdagi narxlarda sotilishi; turizm sohasida milliy, hududiy va xalqaro darajalarda bevosita davlat ko'magini ko'zda tutadigan uzoq muddatli ijtimoiy siyosatning mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan belgilarning yig'indisi ijtimoiy qadriyatlarning afzalliklarini ifoda etib, sotsial turizmning dotatsiyali turizm ko'rinishi sifatida tor yondashuv ta'rifida paydo bo'ladi. Tor yondashuvga ko'ra, sotsial turizm aholining eng nochor qatlamlarining dam olish, erkin ko'chib yurish, sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqlarining amalga oshirilishiga qaratilgan. Sotsial turizmni tushunishda bunday yondashuv nafaqat sayohatning maqsadini va ishtirokchilarini cheklashga, balki xizmatlar yig'indisi, ularning iste'molini tashkillashtirish, xarajatlarini qoplash xususiyatlarini ochishga imkon beradi.

Chet el olimlari, jumladan, G.A.Karpova¹⁵, V.S.Senin, V.A.Kvartalnov¹⁶, I.V.Zorin¹⁷ va boshqalar sotsial turizmning tor yondashuviga asoslanadilar. Tor

¹⁴ Материалы Всемирной конференции по тризму. – Мадрид, WTO, 1981. с.160; Бронников В.В. «Благотворительность в организации услуг социального туризма» монография, - М.: МАКС Пресс, 2005. – 120 с. – 8 бет.

¹⁵ «Менеджмент туризма» – М.: Финансы и статистика, 2004. с.160 под редак. В.А.Квартальнова

¹⁶ В.А.Квартальнов «Туризм». М.: «Финансы и статистика» 2004, 28 стр.

doiradagi yondashuvda sotsial turizm o'z ichiga ijtimoiy yordamning turli choralarini qamrab oluvchi va dam olishni tashkillashtirishda kam xarajatli variantlarni tanlashga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Bu yondashuvga asosan, sotsial turizmga davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag'lardan subsidiyalanadigan sayohatlar kiritilgan. Davlat, ma'lum bir muddatlarda, sotsial turizmning maqsadlariga chegaralangan miqdordagi mablag'larni ajrata olganligi sababli, bu turizm iste'molchilari kontingenti ham chegaralangan. Bu yerda moliyalashtirishning boshqa manbalari inobatga olinmaydi, asosiy e'tibor esa davlatning byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalariga qaratiladi. Bu ijtimoiy jamg'armalarga Pensiya jamg'armasi va Ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan shakllangan jamg'armani kiritish mumkin.

Sotsial turizm – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining, davlat byudjeti, davlat va nodavlat jamg'armalari, homiylar, turizmda faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar hamda jismoniy shahslar tomonidan faqat ijtimoiy ehtiyojlarga ajratilgan mablag'laridan moliyalashtiriladigan turistik sayohatlarning barcha turlari hisoblanadi.

Sotsial turizm turizmning boshqa turlari kabi boshqa xizmatlardan ajralib turuvchi xizmatlar majmuasiga egadir. Sotsial turizm xizmatlari boshqa turizm xizmatlaridan quyidagilar bilan farqlanadi:

- bolalar hamda aqliy va jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlarning turistik sayohatlarida maxsus malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar ishtirokining, maxsus tartibda o'rnatilgan nazoratning, yuqori darajada ishonchning mavjudligi;

- sotsial turizmda faoliyat ko'rsatuvchi joylashuv vositalarining, ovqatlanish va transport xizmatlarini taklif qiluvchi korxonalarning o'ziga xosligi, ya'ni sotsial turizm iste'molchilariga taklif etiladigan xizmatlar majmuasining boshqa turdagi turistik mahsulotlardan farq qilinishi;


¹⁷ Зорин И.В. Теоретические основы формирования содержания профессионального туристского образования. – автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – М.: Российской международной академии туризма, 2001. с 19.

- sotsial turizm xizmatlarining turli manbalardan moliyalashtirilganligi sababli, boshqa turdagi turistik mahsulotlardan farqli ravishda, kichikroq hajmda taklif etilishi, ya'ni sotsial turizm xizmatlar iste'molchisi yo'llanma tarkibiga kirgan asosiy xizmatlardan (joylashuv, ovqatlanish, zaruriy davolanish muolajalari) tashqari bo'lgan boshqa xizmatlarni qo'shimcha xaq evaziga xarid qilishlari mumkinligi va shu kabilar.

Shunisi e'tiborliki, olib borilgan tadqiqotlar natijasida sotsial turizmda ilmiy-tadqiqot olib boruvchi mutaxassis-olimlar sotsial turizm xizmatlar mohiyatini ochib berishgani bilan, ularning ta'rifini keltirishmaganligi aniqlandi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda sotsial turizm xizmatlariga ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Sotsial turizm xizmatlari – ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga (bolalar, o'smirlar, yoshlar, jismoniy yoki aqliy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar, kam ta'minlangan aholi guruhlari) sotsial turizm sub'ektlari (sotsial turistik birlashmalar, bolalar va o'smirlar turistik hamda turli sog'lomlashtirish-kurort muassasalari, imtiyozli asosda xizmat ko'rsatuvchi boshqa turistik korxonalari) tomonidan, davlat, davlat va nodavlat jamg'armalari, huquqiy va jismoniy shahslarning mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan, turistlarning mutanosib ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlar majmuasidir.

Sotsial turizm ta'rifidan ma'lum bo'lishicha, iste'molchilar tarkibi, ularning sayohat maqsadi, sayohatning moliyaviy ta'minoti nuqtai nazardan bir necha turlarga ajratish mumkin. Sotsial turizm turlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq (chizma -1.1.1.):



1.1.1.¹⁸-chizma. Sotsial turizm turlari.

Sotsial turizm faoliyatida umumqabul qilingan xalqaro atamalarga asosan, uning mohiyatini, faoliyat doirasini va mazmunini ifodalovchi quyidagi tushunchalar ishlatiladi: sotsial turizm, sotsial turizm sohasidagi turistik faoliyat, sotsial tur, sotsial turni xarid qilish qobiliyatining bazali standartlari, qo'shimcha to'lovli xizmatlar, sotsial tur ishtirokchisi, sotsial turizm tashkiloti, sotsial turizm ishtirokchisining a'zolik kartasi, marshrut kitobchasi (varaqa), ta'til cheki.

Har bir mamlakatda sotsial turizm xizmatlarini tashkil etish quyidagi omillarga bog'liq¹⁹:

- turli sektorlar o'rtasida (davlat, hususiy va ijtimoiy sektor) hamkorlikni shakllantirilganligiga. Barcha sektorlarning o'zaro aloqadorligi natijasida sotsial turizmni moliyalashtirish va uni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi;

¹⁸ Chizma tatqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁹ Менеджмент туризма. Экономика туризма. М.: "Финансы и статистика", 2004. – с. 162

- sayohatlarning turli toifadagi ishtirokchilari ehtiyojlariga mos keladigan turizmning yangi ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarini yaratish. Sotsial turizmning yangi tizimlari va ular bilan bog'liq chora-tadbirlar yaratiladi;

- turli darajadagi (milliy, hududiy, mahalliy) turistik ma'muriyat, shuningdek, bevosita turizm bilan bog'liq sotsial birlashmalar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilganligi. Ushbu hamkorlik natijasida sotsial turizmda yangi mahsulotlarni yaratish, ichki turistik infratuzilmani yangilash va takomillashtirib borish imkoniyati tug'iladi;

- sotsial turizm faoliyatini inson rivojlanishiga yordam beruvchi sotsial, ta'lim va madaniy masalalarning umumiy yechimiga qaratilganligi. Turli rekreatsion va yangi ob'ektlarni o'rganish bilan bog'liq turlarning yaratilishi;

- irqiy, madaniy, diniy, falsafiy yoki ijtimoiy belgilar bo'yicha mijozlarning bo'linmasligi. Mamlakatning turistik xizmatlarni iste'mol qilish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha aholisi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotsial turizm iste'molchisi bo'lishi mumkin;

- toza muhitga integratsiyalashuvining ta'minlananligi. Sotsial turizm bilan ekoturizmni chambarcham bog'lagan holda, kundalik hayotning shovqin-so'ronli muhitidan tabiiy toza muhitga chiqish, iste'molchilarning rekreatsion maqsadlariga mosdir;

- narxlarning ijtimoiy maqsadlar uchun talab etiladigan miqdorda bo'lishi; faoliyat turlarining va narxlarining aniq nomlanishi;

- personalni boshqarishning sotsial qonunchilik bilan mutanosibligi va uning kadrlar malakasini doimiy oshirishga qaratilganligi.

Ushbu omillardan kelib chiqqan holda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ko'rish mumkin:

- Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlaridan foydalanish imkoniyatlarning taqdim etilishi hisobiga ichki turizm salohiyatini ko'tarish;

- Turizmda mavsumiy rejalashtirish orqali turistik distinatsiyaning madaniy-tarixiy yodgorliklarini saqlash, jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini hurmat qilish ko'nikmasini kuchaytirish;
- Turizm sohasida inson resurslarini rivojlantirish, kadrlar malakasini, mahalliy mehnat resurslarining bandligini oshirish; o'quvchilar, ayollar, nogironlar va veteranlarning dam olish imkoniyatlarini ta'minlash;
- Bozor iqtisodiyotini ijtimoiy masalalar echimiga yo'naltirish. Bozor infratuzilmasi tarkibidagi korxona va boshqa sub'ektlarning mablag'lari hisobidan sotsial turizm faoliyatini moliyalashtirilishiga imkon yaratish;
- Milliy manfaatlarni chet el manfaatlaridan ustun qo'yish. Mahalliy aholining chet el turistik markazlarga borib pullarini sarflashini emas, balki mahalliy turistik markazlarga sarflashiga intilish;
- Sotsial turizm mahsulotiga bo'lgan narxni erkinlashtirish orqali bozor munosabatlarning nazoratini shakllantirish;
- Sotsial turizm sohasidagi barcha institutlarning (bank, ishlab chiqarish korxonasi, qishloq xo'jalik korxonasi, xizmat ko'rsatish korxonalari va boshqalar) mamlakat aholisi manfaatlarini himoyalashda ishtiroki;
- Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor infratuzilmasini (banklar, birjalar, jamg'armalar) yaratish orqali mahalliy turizm sohasida tizimli qayta tashkil etishni amalga oshirish.

1.2. Sotsial turizm xizmatlarini xalqaro miqyosda tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari

Har bir jarayon o'zining dastlabki paydo bo'lish shaklidan hozirgi kundagi shakligacha qandaydir tarixiy jarayonlarni bosib o'tadi. Har bir jarayon turli tarixiy sharoitlar ta'sirida ma'lum bir o'zgarishlarga duch keladi. Jarayonga ma'lum bir salmoqli o'zgarishning kiritilishi uning rivojlanish tarixida yangi bosqichning boshlanishidan dalolat beradi. Shu sababli ihtiyoriy jarayonning tarixini

o'rganishda, uni ma'lum bir belgilariga qarab bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sotsial turizmning tarixiy bosqichlarini va turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklarni tahlil qilishdan oldin, ommaviy (ijtimoiy) turizm va sotsial turizmning farqlarini keltirib o'tish kerak bo'ladi. Yuqorida «ijtimoiy» va «sotsial» turizm tushunchalarini keltirganimizda bunga qisman tuxtalgan edik. Ommaviy yoki ijtimoiy turizm deganda aholining mustaqil tarzda arzon yo'nalish va turistik korxonalarni tanlab sayohat qilishi tushuniladi²⁰. Sotsial turizm deganda esa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, alohida e'tibor talab etuvchi qatlamining imtiyozli va chegirmali asosda sayohat qilishini tushunish mumkin.

Turizmning tarixiy rivojlanishiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni o'rgnish natijasida, dunyoda turizm rivojlanishini shartli ravishda 5 tarixiy bosqichga ajratish mumkinligi aniqlandi²¹.

Birinchi bosqich – (antik davridan to XIX asr o'rtasigacha) savdo bilan birgalikda ziyorat, bilim olish, sog'lomlashtirish va sport sayohatlarning asosiy maqsadlari bo'lgan. Sanoatchilar va davlat xizmatchilaridan (chinovniklardan) farq qiluvchi «uchinchi tabaqa»ning (hech qanday imtiyozga ega bo'lmagan shahar va qishloq aholisi, hunarmand, ishchi va dehqonlar) jamoatchilik o'rni kuchaygan sari sayohatning ta'lim va tanishuv maqsadlari an'ana tusiga kirib bordi. Bu bosqichni elitar sotsial turizm bosqichi deb atash mumkin.

Ikkinchi bosqich – (XIX asr o'rtasidan XX asr boshigacha) texnik taraqqiyot, ishlab chiqarishning sanoatlashuvi, transport va yo'llar tarmog'ining rivojlanishi elitar sotsial turizmning ommaviy sotsial turizmga aylanishiga turtki bo'ldi. Bunda asosan kafolatlangan haq to'lanadigan mehnat ta'tillarining paydo bo'lishi katta ahamiyatga ega. Ommaviy turistik sayohatlarning birinchi tashkilotchisi T.Kuk 1841 yilda bu sayohatlarni tijorat maqsadlarida emas, balki ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan holda tashkil qilgan.

²⁰ Крючков А.А. История международного и отечественного туризма. – Москва – 1999, 50 бет.

²¹ <http://travelgroup.ru/tourismhistory>

Uchinchi bosqich – (XX asr boshidan va o’rtasigacha) ommaviy turizmning rivojlanishi. Bu vaqtda ommaviy turistik sayohatlar xalq turizmi shaklini oladi.

To’rtinchi bosqich – (XX asrning 50-80 yillari) turizmning ommaviy industrial va konveyirli shakllarining paydo bo’lishi. Turizmning industriyasi shiddatli tarzda rivojlanib ketdi.

Beshinchi bosqich - (XX asrning 90-yillaridan to h.k.) turizm va turistik xizmatlarning shakl va turlarining ko’payish davri.

Tabiiyki, sotsial turizm tarixan ishchilar turizmidan boshlandi va u XIX-asr va XX-asrning boshlaridagi ishchilar harakatlari bilan bog’liqdir. Sotsial turizmni kengroq ravishda tashkil etish uchun Buyuk Britaniyada yaxshi sharoitlar mavjud edi, bu hududda mahalliy aholining dam olish an’anasining («holidays») mustahkam asoslarga egaligi bunga ijobiy ta’sir qildi. O’sha davrda korxona rahbari va uning oilasidan tortib oddiy ishchi va xizmatkorlargacha o’z dam olish kunlariga va ta’tillariga ega edilar, hamda o’sha vaqtda shahar tashqarisiga, qishloqdagi dala hovlilarga va tanishlarinikiga, dengiz bo’yiga va boshqa joylarga dam olishga oshiqishardi, albatta bunga ularning moliyaviy jamg’armalarning hajmlari katta ta’sir ko’rsatgan. Ba’zi insonlarning moliyaviy imkoniyatlari ro’zg’or xarajatlaridan orttirolmanligi sababli ta’tillarini o’z uylaridan chiqmay o’tkazishgan, shu sababli Buyuk Britaniyaning ba’zi graflik(hududiy bo’linma)larida «ta’til kassalari»ga badallarni to’lash tizimi joriy qilingan edi, bu esa yirik korxonalarda ishlayotgan ishchi va xizmatchilarga mehnat ta’tillari vaqtidagi sayohatlarni moliyalashtirishga imkon yaratardi. Shuni ta’kidlash kerakki, mehnat ta’tillari vaqtida yil davomida faoliyat ko’rsatayotgan fabrikalar 1-2 haftaga yopilar edilar. Shu davrlarda ko’pgina Yevropa mamlakatlarida ham shunga o’xshash ishchilar uyushmalari tashkil etilgan hamda ularning asosiy vazifalari qatoriga ekskursiyalarni va sayohatlarni tashkil etish ham kiritilgan edi.

Ijtimoiy-demokratik va kasaba uyushmalar harakatlarining rivojlanishi bilan ular o’z tarkiblarida alohida turistik byurolarni tashkil eta boshladilar. Shunday byurolar Yevropaning ko’pgina industrial mamlakatlarida mavjud edi (Avstriya,

Belgiya, Germaniya, Gollandiya, Daniya, Chexoslavakiya, Shveytsariya, Shvetsiya va boshqalar)²².

Ko'rinib turibdiki, sotsial turizm o'z tarixiy bosqichlariga ko'ra juda qadimdan mavjud bo'lib kelgan va turli davrlarda mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda turlicha yondashishlarni keltirib chiqargan. Bunga bir necha misollarni keltirib o'tish mumkin.

Ta'til cheklari tizimining samarali faoliyati uchun quyidagi sub'ektlarning mavjudligi va o'zaro aloqadorligi muhim hisoblanadi:

1. Cheklar bo'yicha zaruriy jarayonlarni (emissiya, sotish va to'lash) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan agentlik yoki tashkilotning mavjudligi;
2. Ta'til cheklari ulgurji xaridorlarining (korxonalar, kasaba uyushmalari) mavjudligi;
3. Cheklarni oluvchilar va ulardan foydalanuvchilar (alohida jismoniy shaxslar) mavjudligi;
4. Ta'til cheklari asosida xizmat ko'rsatish korxonalarining (mehmonxonalar, pansionatlar, sanatoryalar, oromgoh va dam olish uylari, turbazalar) mavjudligi.

Bu tizim faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslangan:


- belgilangan agentlik talab etiladigan pul miqdoridagi cheklarning emissiyasini amalga oshiradi;
- ulgurji xaridor cheklar qiymatini oldindan to'lab, korxona xodimlariga chegirmali narxda taqsimlaydi (bu yerda chegirmalar turlicha bo'lishi mumkin);
- korxona xodimi chek qiymatini bir vaqtning o'zida yoki ulushli asosda to'lashi mumkin;
- xizmat ko'rsatish korxonalari (mehmonxonalar, ovqatlanish shahobchalari, do'konlar va shu kabilar) olgan cheklarini, ularni emissiya qilgan agentlikda naqd pulga aylantirishlari kerak bo'ladi.

Bu tizimdan foydalanishning yetarlicha uzoq muddati uning afzallik tomonlari bilan birga kamchiligini ham ko'rsata oldi. Ta'til chekini olgan shaxslar,

²² Крючков А.А. История международного и отечественного туризма. – Москва – 1999, 50-52 бет.

ta'tilni o'tkazish joyi va o'tkazish turini erkin tanlash huquqiga ega, bunda ulardan tashqari oilasining ixtiyoriy a'zosi bu chekdan foydalanishi mumkin. «Chek – dam olish» tizimiga yangitdan kiruvchi turistik xizmatlarni yetkazib beruvchilar servis sifati bo'yicha tanlov tizimini o'tadilar. Ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, hokimiyatning mahalliy boshqaruv vakillari, pensiya fondi va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ta'til cheklarining ulgurji xaridorlari sifatida ishtirok etib, o'zlarining mezonlarini hisobga olgan holda, imtiyozli asosda iste'molchilar orasida taqsimlaydi. Mas'ul kompaniyalardan shartnomaviy asosda «chek»larni xarid qiluvchilar minimal ish haqi miqdoridan oshmaydigan daromadlarga ega bo'lgan shaxslar hisoblanadi, bu esa kam ta'minlanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. «Chek»larni ulgurji xarid qiluvchilar soliq imtiyozlariga ega bo'ladi, bu esa ish beruvchilarga ijtimoiy dasturlarni uzoq muddatli investitsiyalarsiz amalga oshirish imkonini beradi, shu bilan birga ular ishchi kuchini jalb qilish muammosini xal qilib, mehnat munosabatlarini mustahkamlaydilar.

Ammo ta'til cheklarini berish mezonlari bu tizimga kirish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi, chunki shartnoma faqat belgilangan miqdordan katta bo'lmagan daromadga ega bo'lgan yollanma ishchi bilan tuziladi, shu bilan birga u kamida 4 oy muddatda pul badallarini to'lashi kerak, ya'ni ishning joriy iste'mol xarajatlaridan bir qismi bosqichma-bosqich undirib olinadi. Ta'til cheklari tizimi faoliyatining samaradorligi sarf qilingan mablag'lar hajmidan va inflyatsiya darajasidan past bo'lmagan daromadga bog'liq bo'ladi. Ta'til cheklari tizimini moliyalashtirishning qo'shimcha manbai sifatida ishonchli bankga qo'yilgan omonatlardan keladigan bank foizlarini ham kiritish mumkin, bu esa uni tanlashda ishonch darajasini hisobga olishni talab qiladi.



1.2.1.-chizma. Ta'til cheklarining hayot sikli²³

Shuni ta'kidlash joizki, Shveytsariya «chek»larining ijtimoiy yo'naltirilishi asta-sekin kuchsizlanib bormoqda va fransuz tizimi iste'molchilarining kontingenti esa ko'payib bormoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, Shveytsariyada ta'til cheklaridan mamlakat aholisining katta qismi foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsada, Fransiya undan foydalanuvchi iste'molchilar kontingenti kichikroqdir. Umuman olganda Fransiya va Shveytsariyada faoliyat qiluvchi ta'til cheklari tizimining qiyosiy tahlilini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin bo'ladi (1.2.1.-jadval).

²³ Ушбу чизма татқиқотлар асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

Ta'til cheklari tizimlarining tahlili²⁴

№	FRANSIYA	SHVEYTSARIYA
1	Cheklarning maxsus tashkilotlar tomonidan chop etilishi	
	Mehnat ta'tillari cheklarining Milliy agentligi tomonidan chop etiladi.	REKA milliy sayohatlar agentligi (sayohatlar kassasi) tomonidan chop etiladi.
2	Cheklar ma'lum miqdordagi chegirmalar asosida ulgurji xaridorlar tomonidan jismoniy shahslarga taqsimlanishi	
	Ta'til cheklarining qiymatidan 20-80%li chegirmalar asosida xaridor korxona va tashkilotlariga taqsimlanadi	Ta'til cheklarining qiymatidan 5-25%li chegirmalar asosida xaridor korxona va tashkilotlariga taqsimlanadi
3	Ta'til cheklaridan foydalanuvchilarning turli toifaga egaligi	
	Ta'til cheklari iste'molchilar doirasi qat'iy belgilangan, ya'ni iste'molchilarning daromad solig'i 1 yilda 1920 yevro (2000\$)dan oshmasligi, ularga beriladigan dotatsiyalarning minimal ish haqidan, ya'ni 1030 yevro (1100\$) oshmasligi kerak. Ya'ni ta'til cheklari iste'molchilarga faqat qat'iy belgilangan daromadga ega bo'lgan aholi guruhlari kiritiladi.	Ta'til cheklari iste'molchilariga aholining ixtiyoriy vakilini kiritish mumkin, ya'ni Fransiyadan farqli ravishda ish joiydan, lavozimidan va daromadidan qat'iy nazar Shveysariyaning barcha fuqarolari ta'til cheklarini xarid qilishi mumkin.
4	Sotsial turizmda xizmat qiluvchi korxonalar miqdori	
	Mamlakat hududida ta'til cheklari tizimiga kirgan va sotsial turizm iste'molchilariga xizmat ko'rsatuvchi 150 mingta korxona mavjud.	Mamlakat hududidagi 7 mingta turistik korxonalar sotsial turizm faoliyat ko'rsatadi.
5	Soliqqa tortish bazaning belgilanmasligi	
	Ta'til cheklarini xarid qilish uchun sarflangan mablag'lar soliqqa tortilmaydi, ya'ni ish haqidan ta'til cheklari uchun ajratilgan qismi soliq solish bazasiga kiritilmaydi.	

²⁴ Ushbu jadval muallifning tadqiqotlari asosida tuzildi.

6	Turizm korxonalari uchun imkoniyatlar	
	Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar qo'shimcha mijozlarga va kafolatli to'lovlarga ega bo'ladilar, ya'ni to'lovlar ta'til cheklari emitentlari tomonidan amalga oshirilishi ularni kafolatlaydi.	
7	Cheklar uchun mas'ul agentliklar yoki tashkilotlarning daromadi	
	Chekni tarqatuvchi Agentlik mijozlarni jalb qilganligi va reklama-targ'ibot ishlari hamda cheklarni realizatsiya qilganligi uchun komission mablag'larga ega. Bundan tashqari bo'sh mablag'larni banklarga joylashtirilganligi bo'yicha foiz daromadlar, aksiyalar xaridi bo'yicha foizlar va ko'chmas mulkni ijaraga berish bo'yicha daromadlarga ega.	
8	Aholi tomonidan talab qilinish darajasi	
	Chek tizimiga aholi katta qismining qiziqishi sababli, sotsial turizm jamiyat hayotining bir bo'lagi bo'lib, tijorat turizmi bilan tenglashib qoldi.	
9	Tashkilotning moliyaviy daromadlari	
	Aholining ta'til cheklari uchun to'lagan badallari, xususiy mulkini ijara berganligi uchun keladigan ijara xaqlari, homiylik mablag'lari va turli jamg'armalarning ehsonlari ta'til cheklari tizimida faoliyat yuritadigan tashkilotning moliyaviy daromadlari hisoblanadi.	
10	Sotsiologik tadqiqotlar natijalari	
	Sotsiologik tadqiqot natijasida ma'lum bo'lishicha Franiyaning mehnatga yaroqli aholining 17%i (4 mln.) ta'til cheklari tizimidan foydalanib kelmoqda.	Sotsiologik tadqiqotlar natijasida Shveytsariyaning 1,6 mln aholisi., ya'ni jami aholining $\frac{1}{4}$ qismi ta'til cheklari tizimidan foydalanadilar. Ularning xaridi hatto iqtisodiy tanglik sharoitida ham sezilarli pasaymagan.

Fransiyadagi Agence Nationale pour les Shegues Vacances (ANSV) (Miliy dam olishlarni tashkilashtiruvchilar agentligi) 1982 yilda tashkil etilgan va o'sha davrdan boshlab turizm siyosatidagi ijtimoiy vosita sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu agentlik iloji boricha ko'proq turistik sayohatlarda ishtirok etishni ta'minlash va provinsiyalar orqali turizmni tarqalishiga yordam berish maqsadida hamkorlik ishlarini olib boradi. Bu agentlik 21 mingta tashkilotga ega bo'lib, uning faoliyatiga 135 turizm ob'ektlari xizmat ko'rsatishga jalb qilingan.

Sotsial turizm tizimiga taqsimot yondashuvi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liq. Sotsial turizmning sobiq Ittifoq tizimi bazali turistik xizmatlarga «teng va umumiy iste'mol» tamoyilini olg'a surgan. Ammo ommaviylik servis sifatining pastligi va yo'llanmalarning shunga mos qiymati hisobidan erishilgan.

1.3. O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari va sotsial turizmni rivojlanish holati

O'zbekistonda ohirgi yillarda turizm sohasiga tegishli huquqiy me'yoriy baza yaratilib kelinmoqda, mamlakatning bu boradagi islohotlari natijasida qabul qilingan ayrim hujjatlarga o'zgartirish va tuzatishlar kiritilmoqda. Mamlakatda mavjud huquqiy manbalarda «turizm» atamasi bilan bog'liq 160ga yaqin hujjatni topish mumkin bo'ladi. Ammo bularning barchasi faqat qonun va farmoyishlardan iborat emas, balki Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan tarmoqqa tegishli me'yoriy hujjatlari, mamlakatning boshqa davlatlar bilan imzolagan xalqaro shartnoma va kelishuvlar ham mavjud. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar O'zbekistonda turizmni rivojlantirish yo'nalishlari va mexanizmini belgilaydi.

O'zbekistonda turizmning rivojlanish darajasini bir necha bosqichlarga ajratish mumkin bo'ladi:

- birinchi bosqich – 1992 – 1995 yillarni qamrab oluvchi davr bo'lib, turistik ob'ektlarni xususiylashtirish, kichik xususiy mehmonxonalarni qurish ayni o'sha davrdan boshlangan. Toshkentda o'tkaziladigan xalqaro turistik yarmarka o'z ishini boshlagan va turli tarmoqlar tasarrufidagi korxonalar asosidagi yagona turizm tarmog'ini tashkillashtirish davri hisoblanadi.

- ikkinchi bosqich – 1995 – 2000 yillar. Qabul qilingan hujjatlar asosan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, nodavlat tijorat birlashmalarini tuzishga qaratilgan. Shu bosqichda 2005 yilgacha turizmni rivojlantirish dasturi qabul qilingan. Mehmonxona tizimiga yirik investitsiyalarni jalb qilish, kichik va xususiy tadbirkorlikga imtiyozlar berish jarayoni avj oldi.

- uchinchi bosqich – 2001 yildan to hozirgi kungacha. “O‘zbekiturizm”MK tizimiga kiruvchi korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarildi va ushbu kompaniya endilikda O‘zbekistonda Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasiga aylantirildi.. Turistik rasmiyatchilikni yengillashtirishga qaratilgan tarmoqlararo kelishuvlar o‘rnatilmoqda.

Qonun hujjatlari nafaqat respublika, vazirliklar miqyosida qabul qilinadi, balki har bir ma‘muriy birlik ham, o‘z mintaqaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, turli faoliyatlarga oid qarorlarni qabul qiladilar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida mintaqalarni kompleks rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Vazirlar Mahkamasining “mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi”dagi ma‘ruzasida hududlarni kompleks va intensiv ravishda rivojlantirish borasida qabul qilingan yangi maqsadli dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha muhim vazifa va choralarni belgilab berdilar²⁵.

Bu chora-tadbirlar Prezidentimizning hududlarda bo‘lgan safarlarida yanada ustuvor ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, Prezidentimiz o‘zining 2017 yil 27 yanvardagi Xorazm viloyatiga tashrifi mobaynida “Xorazm viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilashga doir

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Vazirlar Mahkamasining “Mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi”dagi ma‘ruzasi Xalq so‘zi, 2017 yil 16 yanvar.

qo'shimcha chora tadbirlar Dasturi" ishlab chiqilganini va 2017 yil 17 yanvardagi maxsus qaror bilan tasdiqlanganligini aytib o'tdilar²⁶.

O'zbekistonda sotsial turizm faoliyati O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi va Kasaba Uyushmalari Kengashi faoliyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Bu bog'liqlik shu boshqaruv tarkiblarining o'z vakolatlari doirasida kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamlariga va kasaba uyushmalariga a'zolik badallarini to'lab boruvchi ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolariga sog'liqlarini tiklash va profilaktika qilish maqsadlarida sanatoriya-kurortmuassasalariga, bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlariga bepul yoki chegirmali narxda yo'llanmalarni tarqatish orqali aks ettiriladi. Mamlakatimizda sotsial turizm faoliyatini moliyalashtirishning katta qismi ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi.

1994 yil fevralida tasdiqlangan «Sug'urta badallarini hisoblash va tulash, ijtimoiy sug'urta mablag'larini hisobga olish va sarflash tartibi to'g'risida»gi qo'llanmaning 6-bo'limiga asosan, respublikaning ijtimoiy sug'urta mablag'lari Davlat bank muassasalaridagi joriy hisob raqamlarida saqlanib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishgan holda ochiladi. Davlat ijtimoiy sug'urta mablag'laridan O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan mehnatkashlarga, ularning oila a'zolariga sanatoriya-kurort xizmati ko'rsatish, bolalarni sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etishga ketadigan xarajatlar moliyalashtiriladi (turli darajadagi nafaqalar Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan, kompensatsiya to'lovlari respublika moliya organlari tomonidan moliyalashtiriladi). Bolalarga nafaqa to'lash, mehnatkashlar va ularning oila a'zolariga sanatoriya-kurort xizmati ko'rsatish hamda bolalarni sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish uchun ketgan xarajatlarni qoplash moliya va kasaba uyushmalari organlari tomonidan, ijtimoiy sug'urta mablag'larini sug'urta qildiruvchilar hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

²⁶ www.xorazm.uz

Kasaba uyushmasi qo'mitalari ijtimoiy sug'urta bo'yicha smetada belgilangan summa doirasida mehnatkashlarning sanatoriya-kurortda davolanishi va dam olishini, bolalarni sog'lomlantirishni amalga oshiradi. Bunda ular mazkur mablag'lar hisobidan jamoalar o'rtasida ko'proq ehtiyoj sezilgan (turizmdan tashqari) sog'lomlashtirish turlarini moliyalashtiradilar. Bu xarajatlarni to'lash kasaba uyushmasi qo'mitasining qarori asosida sug'urta qildiruvchining kreditlarini taqsimlovchi shahslar imzo chekkan to'lov hujjatlari asosida quyidagi qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- sanatoriyalar, pansionatlar, dam olish uylari va bazalariga ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan olingan yo'llanmalar uchun haq to'lash mazkur yo'llanmani bergan tashkilot hisob raqamidan amalga oshiriladi. Yo'llanmalar uchun hisob raqamisiz, shuningdek, qandaydir avans to'lovlari shaklida mablag' o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi;

- bolalarning sog'lomlashtirish oromgohlarini saqlab turish uchun o'z hissasini qo'shish bo'yicha ajratilgan mablag'lar, bolalar-o'smirlar sport maktablarini qisman moliyalashtirish bo'yicha mablag'lar, kasaba uyushmalari qo'mitalarining ehtiyoriga ko'ra, ularning kasaba uyushmasi byudjeti bo'yicha joriy hisob raqamlariga yoki sog'lomlashtirish oromgohlari, bolalar-o'smirlar sport maktablarining joriy hisob raqamlariga o'tkazilishi mumkin va boshqalar.

Ijtimoiy sug'urta mablag'lari kasaba uyushmalari kengashlarining, tuman, shahar, viloyat, respublika va markaziy qo'mitalarining joriy hisob raqamlaridan kasaba uyushmasi byudjeti bo'yicha kasaba uyushmalari organlariga, fakat ruxsat etilgan mablag' doirasida bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini saqlab turish va ta'mirlash hamda maktabdan tashqari ishlarda xizmat ko'rsatish, sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun o'tkazilishi mumkin.

Nogironlar va qariyalar turizmida davolanish, sog'ligini tiklash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari kengashi tomonidan ishchi xizmatchilarga imtiyozli ravishda beriladigan yo'llanma va kursovkalarni rejalashtirish, chiqarish, taqsimlash va sotish amaliyotlari amalga oshiriladi. Kasaba uyushmalari tomonidan beriladigan

yo'llanmalar bir kishiga sanatoriyda davolanish uchun, ona(ota)ning bolasi bilan birga sanatoriyda davolanishi uchun, bir kishining dam olishi uchun, ikki-uch kishi bo'lib oilaviy dam olishi uchun chiqariladi²⁷. Hodimlarga davolanish va dam olish uchun yo'llanmalar belgilangan navbat bo'yicha, xodim yozgan ariza hamda u davolanishi zarurligi haqida tibbiy xulosasi asosida ish joyidan yoki tarmoq kasaba uyushmalari kengashidan beriladi. Bir hodimga ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan 5 yilda bittadan ortiq yo'llanma berilishi mumkin emas. Sanatoriylarda davolanish va dam olish uchun bepul yo'llanmalar birinchi navbatda ishlovchi nogironlar, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, o'z harbiy burchini bajarish paytida sog'ligiga shikast etgan baynalminalchi jangchilar, Chernobil AESdagi avariyaning tugatishda ishtirok etganlar, O'zbekiston Respublikasi ravnaqiga hissa qo'shgan, halol mehnat qilayotgan hodimlar, mehnat faxriylari, ko'p bolali, kam ta'minlangan oila a'zolariga beriladi. Sanatoriylar va pansionatlarda davolanish uchun yo'llanmalar va kursovkalar davolanishga muhtoj hodimlarga tibbiy xulosa (ma'lumotnoma) bo'lgan taqdirdagina beriladi. Kasalligining turiga ko'ra sanatoriydagi davolanish sohalariga to'g'ri kelmaydigan odamlar qabul qilinmaydi. MDH va xorijiy mamlakatlarning sanatoriylariga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Tibbiy-sanatoriy birlashmasi sanatoriylariga, shuningdek «O'zbekiston» aktsiadorlik jamiyatining Kislovodsk va Yalta shaharlaridagi sanatoriylariga beriladigan yo'llanmalarning haqi ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan to'lanmaydi. Shuningdek, sanatoriylarda davolanish va dam olish uchun xo'jalik hisobidagi tashkilotlarning tijorat vositachiligi orqasida sotib olingan yo'llanmalar haqi ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan to'lanmaydi. Bolasi bilan sanatoriyda davolanishi uchun onaga (otaga) ishlab turgan tashkilot tomonidan bolaning tibbiy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda kerakli sanatoriyga beriladi. Oilaviy bo'lib dam olish uchun yo'llanma ishlab turgan oila

²⁷ O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi Rayosatining 2007 yil 10 maydagi №5-15 – sonly qarori bilan tasdiqlangan “Sanatoriylar, dam olish uylari, davolanish pansionatlari va ambulatoriya - sanatoriylari kursovkalari uchun yo'llanmalarni rejalashtirish, chiqarish, taqsimlash, sotish, hisobga olib borish va berish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma” ning yangi tahriri

a'zolaridan biriga, shuningdek oilaning mazkur korxonada ishlamaydigan a'zolariga beriladi.

Ammo ba'zan sanatoriya-kurort yo'llanmalar muddatlari ishlayotgan nogiron yoki pensionerlarga to'g'ri kelmay qoladi. Bu holda ularga vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafakasi beriladi²⁸.

Sanatoriy – tibbiy-ijtimoiy muassasa bo'lib, parvarishga, maishiy va tibbiy xizmatga muhtoj bo'lgan, farzandlari bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasida doimo yashaydigan yuqorida qayd etilgan yolg'iz fuqarolar toifalarini to'liq davlat ta'minotiga oluvchi muassasadir. Sanatoriyga fuqarolar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi tomonidan berilgan yo'llanmalar orqali qabul qilinadilar. U vazirlik tomonidan tasdiqlangan yillik harajatlar smetasiga ega bo'lib, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 414-sonli qarori va amalda bo'lgan qonun hujjatlariga binoan yuqorida belgilangan toifaga mansub bo'lmagan fuqarolarga pullik xizmatni tashkil qiladi, bu faoliyatni esa vazirlik muvofiqlashtiradi va nazoratini olib boradi.

Sanatoriylar qoshida pullik xizmat ko'rsatish aynan shu muassasada ishlayotgan mutaxassislarning bilimi va malakasi, shuningdek ushbu muassasalarga qarashli bino va boshqa jihozlarning texnik holatlari hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi farmoyishlari, qarorlari, buyruqlari, me'yoriy hujjatlariga asoslanib faoliyat yuritadi.

Pullik xizmat ko'rsatish orqali sanatoriyga qabul qilingan pensioner va nogironlarga tegishli malakali tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda sanatoriylarning boshlig'i, bosh vrach pullik xizmat ko'rsatish orqali joylashtirilgan fuqarolarga ko'rsatiladigan pullik xizmat turlari va uning hajmi,

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan 1994 yil fevralda tasdiqlangan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ning 2-bo'limining 16-moddasi.

moliyaviy va xo'jalik munosabatlari, shuningdek, laboratoriya, ixtisoslashtirilgan xonalar, asbob-uskunalaridan foydalanish tartibini belgilaydi, ularning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini, xodimlar tomonidan mehnat intizomiga rioya qilishni ta'minlaydi. Tushgan mablag'lar joriy hisobning maxsus qismiga tushadi, bu joriy hisob byudjet muassasasining hisob raqami ochilgan bankda ochiladi hamda pullik xizmat ko'rsatish faoliyatini moddiy ta'minlash uchun sarflanadigan mablag' kalkulyatsiyaga asoslanib tushgan daromad hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekistonda Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligiga qarashli 5ta sanatoriy o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar²⁹:

1) «Tovoqsoy» Respublika Urush va mehnat fahriylari sihatgohi Toshkent viloyati Bustonliq tumani Tovoqsoy posyolkasida joylashgan bo'lib, 250ta o'ringa mo'ljallangan, unga asosan asab tizimi xastaliklari bilan kasallangan bemorlar 18 kunlik yo'llanma asosida sog'liqlarini tiklashlari mumkin. Bepul yo'llanmalardan tashqari 30-50 kishiga mo'ljallangan pullik xizmat ko'rsatish xizmatlari ham tashkil etilgan;

2) «Kosonsoy» Respublika Urush va mehnat fahriylari sihatgohi Namangan viloyati Kosonsoy tumani Koson «Olmazor» dahasida joylashgan bo'lib, 80ta o'ringa mo'ljallangan. Bu sihatgoh yurak-qon tomir va asab kasalliklarini davolashga ixtisoslashtirilgan bo'lib, 18 kunga mo'ljallangan bepul yo'llanmalar asosida mijozlarni qabul qiladi;

3) «Marjonsuv» Respublika Urush va mehnat fahriylari sihatgohi Jizzah viloyati G'allaorol tumani Marjonbuloq qishlog'ida joylashgan bo'lib, 130 o'ringa mo'ljallangan. Bu sihatgohga suyak-mushak tizimi kasalliklari, asab kasalliklari va oshqozon-ichak kasalliklari bilan xastalangan bemorlar sog'liqlarini tiklash maqsadida 16 kunlik yo'llanmalar bilan ta'minlanadilar. Bepul xizmat ko'rsatishdan tashqari bu sihatgohda pullik xizmat ko'rsatish tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Bu tizim qo'shimcha qurilgan barcha qulayliklarga ega kottedjlarda tashkil etiladi;

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi ma'lumotlari asosida.

4) «Oltiariq» Respublika Urush va mehnat fahriylari sihatgohi Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Qiziltepa qishlog'ida joylashgan bo'lib, 200 o'ringa mo'ljalangandir. Bu sihatgohga suyak-mushak tizimi kasalliklari, asab kasalliklari va oshqozon-ichak kasalliklari bilan xastalangan bemorlar sog'liqlarini tiklash maqsadida 16 kunlik yo'llanmalar bilan ta'minlanadilar;

5) «Marvarid» sihatgohi Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida joylashgan bo'lib, tayanch-harakat a'zolarining, xazm a'zolarining, asab, teri kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga mo'ljallangan. Yangi tashkil etilganligi uchun rekonstruktsiya ishlari sababli 100 o'ringa ega. Hozirgi vaqtda pullik xizmat ko'rsatish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Ijtimoiy jamg'arma – fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida ta'sis etilgan tashkilot. Ijtimoiy jamg'armalar hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlab tuziladi, ularning a'zolari bo'lmaydi. Ijtimoiy jamg'armaning rahbar organini ta'sischi va qatnashchilar tomonidan qurultoy yoki umumiy majlisda saylash yo'li bilan tuziladi. O'zbekistonda xalqaro, respublika, mahalliy ijtimoiy jamg'armalar, shuningdek, turli xalqaro jamg'armalarning bo'limlari tashkil qilingan.

Muassislari o'zlari tashkil etgan jamg'armaning majburiyatlari bo'yicha, jamg'arma esa o'z muassislarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Ijtimoiy jamg'armalar mol-mulkdan o'z ustavida belgilangan maqsadlar uchun foydalanadi. Ijtimoiy jamg'armalarning faoliyat yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida belgilab berilgan (75-modda). O'zbekiston Respublikasida 1991 yildan beri 20dan ziyod ijtimoiy jamg'armalar tashkil etilgan va o'z faoliyatini olib bormoqdalar. Bularning katta qismi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga turistik sayohatlarda ishtirok etishlariga ko'maklashish maqsadida mablag' va turli tadbirlar orqali yordam berishi mumkin. Quyida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan va dasturlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sayohatga ko'maklashishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jamg'armalar ro'yxati kiritilgan: «Ekosan» xalqaro O'zbekiston ekologiya va salomatlik jamg'armasi;

«Sog'lom avlod uchun» xalqaro hayriya jamg'armasi; Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamg'arma; «Sharq ayoli» xalqaro ayollar jamg'armasi; O'zbekiston «Mahalla» hayriya jamg'armasi; O'zbekiston Bolalar jamg'armasi; «Nuroni» jamg'armasi; O'zbekiston ko'zi ojiz va zaif bolalarni hamda yoshlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha «Panoh sho'las» jamg'armasi va boshqalar. Bu jamg'armalarning asosiy maqsad va vazifalariga inson salomatligi va tabiatni muhofaza qilish uchun jamiyatning hamma qatlamlari va fuqarolarni aniq harakatlar qilishga birlashtirish, sog'lom avlod uchun, onalik va bolalikni asrash, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va rag'batlantirish, tabiatni muhofaza qilish, tarixiy, madaniy yodgorliklarni saqlash, mahallalardagi kam ta'minlangan oilalar, keksalar, fahriylar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, yetim-yesirlar, baynalmillachilar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, etimlar, nogiron bolalarni, shuningdek yuqumli kasalliklar, tabiiy ofatlar, urushlar tufayli ozor chekkan jahon bolalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va alohida yordam berish borasidagi xatti-harakatlarni birlashtirish, hayriya va boshqa ishlarni amalga oshirish, ichki ishlar organlari fahriylariga tibbiy va sport-sog'lomlashtirish xizmatlarini tashkil etishda yordam berish, ularning oilalarini ijtimoiy himoyalash kabilar kiradi. Bu maqsadlar va vazifalar bolalar, talabalar va nogironlar sotsial turizmining rivojlanishi uchun asos bo'lishi mumkin. Ya'ni bu jamg'armalarni O'zbekistonda sotsial turizmni rivojlantirishga jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Hozirgi kunda bolalar turizmi O'zbekiston Kasaba uyushmasi tomonidan tashkil etiladi. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rayosati tomonidan 1996 yil 15 martda 6-22 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Bolalarni sog'lomlashtirish oromgohi to'g'risida Nizom»da bolalar yozgi oromgohlar tashkil etish bo'yicha mezonlar alohida e'tirof etilgan: jumladan, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan. Bolalar oromgohlari korxona, tashkilot, o'quv yurti balansida bo'lib, kasaba uyushmalari ulardan bepul foydalanadi. Ta'til vaqtiga qarab bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga: yozgi ta'tilda 18-21 kun, kuzda 7-8 kun, qishda 8-10 kun, bahorda 10-12 kunga yo'llanmalar berilishi mumkin.

Oromgohlarda barcha o'quvchilarning badan tarbiya va sport, sayohat bilan shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak. Oromgohning xo'jalik ishlari uchun sarf-xarajatlarini balansida oromgoh turgan korxona amalga oshiradi. Oromgoh xodimlariga ketadigan xarajatlar kasaba uyushmalari mablag'lari, davlat ijtimoiy sug'urta fondi, xo'jalik organi (korxona), ota-ona badallari, xomiylar mablag'lari, bundan tashqari oromgohning xo'jalik ishlaridan tushgan mablag'lar va boshqa manbalar hisobidan qoplanadi. Davlat muassasalari, madaniyat, ta'lim va fan, tibbiyot xodimlari kasaba uyushmalari tomonidan birlashtirilgan muassasalar va tashkilotlar balansida turgan oromgohlarni ta'mirlash, asbob-uskuna bilan jihozlash, ijaraga olish va xo'jalik jihatdan ta'mirlashga ketadigan sarf-xarajatlar zarur bo'lganida davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Ta'lim va fan, tibbiyot, madaniyat, davlat muassasalari xodimlari kasaba uyushmalari boshqa korxonalarning bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar olganida xo'jalik ishlari va bolalarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash bilan bog'liq sarf-xarajatlar olingan yo'llanmalarning miqdoriga mutanosib tarzda davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan qoplanadi.

I-BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Turizmning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rnini belgilaydigan bo'lsak, uning ijtimoiy tomonlarini, inson hayoti, turmush darajasi, shaxs sifatida shakllanishiga ta'sirini chetlab o'tmasligimiz kerak bo'ladi. Shubhasizki, sotsial turizmning rivoji ham mamlakat aholisining turmush tarziga, ham hudud iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ijtimoiy beqarorlikning pasayishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud va to'liq foydalanilmaydigan turistik resurslarni rivojlanishi, mamlakat obro'-e'tiborining ortishida namoyon bo'lishi asoslab berildi.

2. Sotsial turizm o'z ichiga bolalar, o'smir-yoshlar, talabalar, jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan odamlarning turistik sayohatlarini qamrab oladi. Ularning o'ziga xos tomonlari joylashuv vositalari va tashkil etish

tizimlarida hamda xizmatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, joylashuv vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bolalar oromgohlari (lagerlar), xostellar (yoshlar uchun yotoqxona tipidagi mexmonxona), sanatoriylarda (sog'lomlashtirish va rekreatsion muassasalar) aks ettirilishi ochib berildi.

3. Sotsial turizm – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining, davlat byudjeti, davlat va nodavlat jamg'armalari, homiylar, turizm faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar hamda jismoniy shahslar tomonidan faqat ijtimoiy ehtiyojlarga ajratilgan mablag'laridan moliyalashtiriladigan turistik sayohatlarning barcha turlari hisoblanadi.

4. Sotsial turizm faoliyatida umumqabul qilingan xalqaro atamalarga asosan, uning mohiyatini, faoliyat doirasini va mazmunini ifodalovchi quyidagi tushunchalar ishlatiladi: sotsial turizm, sotsial turizm sohasidagi turistik faoliyat, sotsial tur, sotsial turni xarid qilish qobiliyatining bazali standartlari, qo'shimcha to'lovli xizmatlar, sotsial tur ishtirokchisi, sotsial turizm tashkiloti, sotsial turizm ishtirokchisining a'zolik kartasi, marshrut kitobchasi (varaqa), ta'til cheki.

5. Fransiyadagi Agence Nationale pour les Shegues Vacances (ANSV) (Miliy dam olishlarni tashkilashtiruvchilar agentligi) 1982 yilda tashkil etilgan va o'sha davrdan boshlab turizm siyosatidagi ijtimoiy vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Bu agentlik iloji boricha ko'proq turistik sayohatlarda ishtirok etishni ta'minlash va viloyatlar orqali turizmni tarqalishiga yordam berish maqsadida hamkorlik ishlarini olib boradi. Bu agentlik 21 mingta tashkilotga ega bo'lib, uning faoliyatiga 135 turizm ob'ektlari xizmat ko'rsatishga jalb qilingan.

II-BOB. O'ZBEKISTONDA SOTSIAL TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISH HOLATI

2.1. O'zbekistonning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va ularning sotsial turizmni shakllantirishga ta'siri.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda mavjud qishloqlar bir oila vakillari tomonidan tashkil etgan jamoalardan ibora. Bu bir tomondan turizm sohasi uchun ham ijobiy, ham salbiy ta'sirga ega. Ijobiy ta'siri – jamoaviy tarzda yashovchi guruhlar, moliyaviy mablag'larni markazlashtirilishi natijasida guruhning biror a'zosini turistik sayohatda ishtirok etish imkonining yaratilishida namoyon bo'ladi. Salbiy ta'siri esa, bu guruhlar an'anaviy tarzda turli to'y va marakalariga, har xil marosimlarga barcha moliyaviy jamg'armalarni sarflashidadir. O'zbekistonning tub aholisi farzandlarining kelajagiga pul sarflaydi, ammo o'zlarining rohatini kam o'ylashadi. Inson dunyoga kelgandan boshlab har bir hursandchiligi, ma'lum bir sana va tantanani jamoatchilik bilan nishonlashga intiladi va doimo o'z jamg'armalarini shunga sarflashadi.

Jamg'armalar nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, ularni hosil bo'lish manbai va davriyligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qishloq aholisining asosiy daromad manbai dehqonchilik va fermerlik faoliyatidan, etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini realizatsiyasidan kelib tushgan daromad hisoblanadi. Ammo bu daromadlar mavsumiyligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, asosiy daromad hosil olingan vaqtdagina olinadi va bu mablag' yil davomida sarflanishi uchun jamg'ariladi. Hozirgi kunda qishloq joylarida fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etilishi, kichik biznesning qishloq infratuzilmasiga kirib kelishi bu jamg'armalarning to'g'ri tashkil etilishida va sarflanishida o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Sotsial turizm qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu o'zgarishlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Eng avvalo qishloq aholisining mehnati rag'batlantirilib, sog'lomlashtirishga imkon beriladi;

- Turli hududlarda istiqomat qiluvchi aholi uchun muloqot qilish, tajriba almashinish va malaka o'ttirish imkoniyati tug'iladi;
- Boshqa hududlardagi yangiliklarni o'z yashash joylariga joriy qilishga intilish;
- O'ziga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi;
- Boshqa hudud aholisi bilan o'zaro muloqot qilish natijasida hamkorlik qilishlariga imkon yaratilishi va shu kabilar.

Qishloq aholisining sotsial turizm iste'molchilari sifatida qaralishidagi katta o'zgarishlar nafaqat qishloq xo'jaligiga, balki turizm infratuzilmasiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Bu o'zgarishlar ichki turizmga turistlar oqimining oshishi, mahalliy turistik korxonalar faoliyati takomillashishi, transport aloqalari tizimi iste'molchilarga mos tariflarda faoliyat yuritishi, turizm sohasida band bo'lgan aholi sonining ko'payishiga va shu kabilarda namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda aholining 60%i qishloq hududida istiqomat qilishi turizm bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan aholi potentsial miqdorining qariyb 50%ga oshishi mumkinligini bildiradi. Ya'ni hozirgi kunda bir yilda mahalliy aholining tahminan 30-40%i (maktab va boshqa ta'lim muassasalari o'quvchilarining tarixiy-tanishuv sayohatlari yoki ekskursiyalari, ayollarning turli diniy ziyoratgohlarga uyushtirgan ziyoratlari, bolalarning yozgi oromgohlarda yoki o'rta va katta yoshdagi insonlarning sanatoriy va dam olish uylarida dam olishlari, mahalliy aholining o'z ehtiyojlari maqsadida tashkil etilgan shopping turizmi, bahorgi mavsum vaqtidagi tabiat qo'yniga, tog' yonbag'irlariga rekreatsion maqsadlardagi sayohati) ichki turizmga ishtirok etadi deb faraz qilsak, hamda ularning katta qismini shahar hamda tuman markazlarida istiqomat qiladigan aholisi tashkil etishini inobatga olsak, mahalliy aholi ichki turistik imkoniyatlaridn to'liq foydalana olmayapti degan xulosaga kelish mumkin. Qishloqda istiqomat qiluvchi insonlarning ham bunday sayohatlarda faolroq ishtirok etishi, aholining 50-60%ining ichki turizmga ishtirok etishini ta'minlashga sabab bo'ladi.

Sotsial turizm ishtirokchilari asosan mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar, o'smirlar, qariyalar, nogironlar va doimiy moliyaviy daromadga ega bo'lmagan yoshlar hamda kam ta'minlangan odamlardan iborat.

Bolalar turizmi deganda asosan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlar faoliyati va ularda bolalarning dam olishi tushuniladi. Turli normativ hujjatlarda belgilanganidek, bolalar oromgohlarida 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar dam olishi mumkin. Ammo ko'pincha 10-14 yoshdagilar bu oromgohlarda dam olishga ko'proq jalb qilinadi. Qishloq aholisining 12-14%ini 10-14 yoshdagi bolalar tashkil etsa, shahar aholisining 10-11%ini tashkil etadi. Ammo shahar va qishloq aholisining 10-14 yoshdagilar ulushlari nisbatini 31% va 69%larni tashkil etadi. Yozgi oromgohlarda esa ko'proq shaharda istiqomat qiluvchi bolalar dam oladilar.

Bolalar turizmi bilan birgalikda o'smir-yoshlarning sotsial turizmini ham alohida ta'kidlash mumkin. O'smir-yoshlar deganda 15-19 yoshdagi aholi qatlami tushuniladi. Hozirgi kunda bu yoshlar qatlami respublikaning jami aholisining 31-32%larini tashkil etadi. Bunda sezilarli o'sish sur'ati asosan 20-24 yoshdagi aholi qatlamida kuzatilgan. Shaharda istiqomat qiluvchi o'smir-yoshlar shaharda istiqomat qiluvchi jami aholining 30%ini tashkil etadi, ularda 15-19 yoshlilarning ulushi nisbatan kattaroqdir. Yillar bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, 15-19 va 25-29 yoshlilar guruhlarida 2000 yildan buyon o'sish va kamayish sur'atlarini almashtirganlar, ammo 20-24 yoshlilar guruhi faqat o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. Qishloqda istiqomat qiluvchi o'smir-yoshlar shu erdagi aholining 32-33 %larini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, shaharda istiqomat qiluvchi o'smir-yoshlardan farqli ravishda qishloqda istiqomat qiluvchi o'smir-yoshlarning barcha guruhlari o'sish sur'atlariga ega. Respublikaning barcha o'smir-yoshlarning katta qismi, ya'ni 65-68%i qishloq sharoitida istiqomat qiladi va ularning 67-68%ini 15-19 yoshdagilar tashkil etadi.

Bolalar bog'chalarining turizmga qanday ta'siri mavjudligi haqida savollarning tug'ilishi tabiiydir. Bolalar bog'chalari ularning ijtimoiy integratsiya jarayoni uchun bir vosita sifatida xizmat qiladi. Maktab yoshigacha bolalar bog'chasida tarbiyalangan bolalar boshqa bolalar bilan tezda til topishishlari,

hamma narsaga qiziqishlari, boshqa bolalarga nisbatan kengroq tasavvurga ega ekanliklari bilan farqlanadilar. Uyda ota-onasi va qo'shnilari bilan muloqotda bo'lib, tor doiradan tashqariga chiqmagan bolalar bu doiradan tashqaridagi bolalar bilan muloqotga kirishishga shoshilishmaydi, balki biroz xadik bilan qarashlari mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida qishloq sharoitida bir guruh qishloq bolalarining bir maktabga borishlari va ko'cha o'yinlarida ham birga ishtirok etishlarida, xullas kunning katta qismini bir doiradagi bolalar bilan muloqotda o'tkazadilar va har qanday yangilikni biroz chuchibroq, gohida guruhli tarzda qabul qilishga urinishadi. Boshqa hududlarga 14-21 kunga ketishlari haqida 7-14 yoshgacha o'ylab ham ko'rishmaydi.

Yana bir omil sifatida qishloq xo'jaligida yoz faslining ish qizg'in olib boruvchi davr ekanligidadir. Yozgi oromgohlarda dam olish o'rniga ota-onalariga tomorqa ishlarida yoki daladagi ishlarda yordam berishni afzal ko'radilar. Bu ishlardan xoli bo'lgan vaqt esa qish fasliga to'g'ri keladi, ammo bu vaqtda yozgi sharoitlarga moslashtirilgan oromgohlar uchun noqulaydir. Shu bilan birga sayohatga chiqish uchun iqlim sharoitlari ham biroz noqulaylik tug'dirganligi uchun safarga chiqmaslikka harakat qilishadi.

O'smir-yoshlar turizmi maktabning yuqori sinf o'quvchilari va talabalarning sayohatlarini o'zida mujassamlaydi. Bu asosan 15-29 yoshdagi aholi guruhini tashkil qiladi va O'zbekiston aholisining 31%iga tengdir, 15-19 yoshdagilar 12%ni, 20-24 yoshdagilar 10,5%ni, 25-29 yoshdagilar 8,4%ni tashkil etadi. Shu yoshdagi o'smir-yoshlarning shahar va qishloqda istiqomat qiluvchilarning nisbiy ulushlari quyidagichadir: 15-19 yoshdagilar 32,7% va 67,3%, 20-24 yoshdagilar 35,3% va 64,7%, 25-29 yoshdagilar 36% va 64%lar. Yillar bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi bu ulushlarning qishloq aholisi hisobiga o'zgarishini ko'rsatmoqda. Bu asosan shahar aholisining tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining pasayib ketayotganligida namoyon bo'ladi.

Sotsial turizmga ishtirok etishi mumkin bo'lgan maktab o'quvchilarining ijtimoiy-demografik tahlillari quyidagi xulosalarga olib kelishi mukmin:

- bolalarning yozgi oromgohlarida asosan maktabning 1-9 sinf o'quvchilari dam olishga jalb qilinadilar, ularning 31-32%i shaharda va 68-69%i qishloqda istiqomat qiladilar. Shu bilan birga yillar bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilar ulushi shaharda o'sib, qishloqlarda esa kamayib borayotganligini, 5-9 sinf o'quvchilar ulushi esa shaharda kamayib, qishloqda ko'payib borayotganini kuzatish mumkin;

- respublikada jami o'quvchilar sonining 37%ga yaqini boshlang'ich, 54%i atrofida 5-9 sinf o'quvchilari tashkil etadi, yoshi bo'yicha o'quvchilar sonining yillar kesimida o'zgarish dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, butun respublikada boshlang'ich sinf o'quvchilari ulushi qisqarib borayotganini, yuqori sinf o'quvchilarining ulushi ortib borayotganini kuzatish mumkin.

Sotsial turizmda moliyalashtirish ko'proq «kimningdir hisobiga» amalga oshirilayotganligi uchun ularda bolalar uylari tarbiyalanuvchilari ishtiroki davlatning ijtimoiy himoya siyosatini kuchaytirishga olib keladi. O'zbekistonda 28ta bolalar uylari bo'lib, ularda 3 mingga yaqin bolalar tarbiyalanadi, ularning soni Toshkentda bolalar qishlog'ining tashkil etilishi munosabati bilan oshgandi.

Bolalarning sotsial turizmga ishtirokini nafaqat bolalar yozgi oromgohlari balki maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, masalan, o'quvchilar saroylari, bolalar ijodiyot uylari, yosh o'lkashunoslar stansiyalari, bolalar sayyohlik markazlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari tashkil etishlari mumkin. Bu ishtirok ko'proq quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchilar saroylari turli to'garaklarga kelgan bolalarni o'z qiziqishlari doirasida boshqa saroylardagi to'garaklar, ularning faoliyatlari bilan tanishish maqsadida ekskursiyalarni tashkil etishi mumkin;

- bolalar ijodiyot uylari esa bolalarning tabiat qo'yniga, ijodlari uchun namuna olish va ilhomlanish maqsadida shahardan tashqaridagi so'lim joylarga bir yoki bir necha kunlik sayohatlarni tashkil etishi mumkin;

- yosh o'lkashunoslar stansiyalari va bolalar sayyohlik markazlari, o'z nomi bilan o'lkashunoslik tadqiqotlarni olib borish uchun, bolalarning o'zi yashab

turgan hududning tabiatini yaxshi o'rganishlari uchun piyoda sayohatlarga chiqishlari mumkin;

- bolalar va o'smirlar sport maktablari o'z qatnashchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirish va sog'liqlarini mustahkamlash maqsadida shahardan tashqarida tayyorgarlik maskanlarini (lagerlarini) tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bolalar va o'smir-yoshlardan tashqari mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ham sotsial turizm ishtirokchilari hisoblanadilar. O'zbekiston aholisining 7%i mehnatga layoqatli yoshdan kattalarni tashkil etadi, ya'ni ayollar 55 yoshdan va erkaklar 60 yoshdan kattalar. Qishloq aholisining 6%i (shaharda 9%) mehnatga layoqatli yoshdan kattalarni tashkil etadi. Ammo ularning o'zaro nisbatini qaraydigan bo'lsak 45,4% va 54,6%larni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar nisbatidan farq qiladi, ya'ni 31% va 69%larni tashkil qiladi. Xulosa shundaki qishloq aholisi yoshi oshgan sari shahar aholisiga nisbatan kamaymoqda.

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ham qishloq turmush tarzlariga mos ravishda faqat 1-2 kunlik ekskursiyalarga, to'g'rirog'i, diniy ziyoratgohlarga borishadi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi tasarrufidagi 5ta sanatoriyda davolanish uchun yo'lanmalar va ularga belgilangan imtiyoz va chegirmalar to'g'risidagi ma'lumotlarga qishloq aholisining juda kam miqdorining ega bo'lishi ulardan foydalanish ko'lamini kamaytiradi. Bundan tashqari respublikamizda mavjud boshqa sog'lomlashtirish va dam olish muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham qishloq aholisiga targ'ib qilish ishlari sustroq.

2.2. Sotsial turizm turlarida xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonda sotsial turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini bolalar turizmining tashkil etish masalalariga qaratilgan.

Bolalar o'z moliyaviy manbalariga ega emasligi tufayli sayohatni mustaqil amalga oshira olmaydi. Shuning uchun bolalar turizmi davlat, korxona (tashkilotlar), ota-onalari va homiylar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda ham bolalar turizmini yanada rivojlantirish uchun katta miqdorlarda (boshqa turizm turlariga nisbatan) dotatsiyalar ajratiladi. Ular asosan bolalarni sog'lomlashtirish va ularning dam olishiga mo'ljallangan yozgi oromgohlarning moddiy-texnik bazasini shakllantirish va rivojlantirishga sarflanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda bolalar xalqaro turizmi bozorida quyidagi yo'nalishlardagi sayohat turlariga talab juda katta: mamlakat bo'ylab va chet ellarda maktab o'quvchilari guruhlariga uchun dam olish, sog'lomlashtirish va davolash; ekskursion; chet elda ta'lim olish (til o'rganish oromgohlari va shu kabilar). Lekin ushbu talab mavsumiy xarakterga ega bo'lib, maktab o'quvchilarining ta'vil vaqtlari bilan chambarchas bog'liq, ya'ni u bahor va kuzda – bir haftadan, qishda – ikki hafta va yozda – uch oy davomida shakllanadi. Tabiiyki yozgi ta'vil vaqtida turizmga talab juda katta.

Bizning tadqiqot tahlillarimiz O'zbekistonda bolalar yozgi dam olishni tashkil etishning o'ziga xos tomonlarini ajratish imkonini berdi. Hozirgi kunda ushbu turizm:

- Davlat byudjeti va turli nodavlat jamg'armalari, korxonalar va ota-onalar hisobidan moliyalashtiriladi: ijtimoiy sug'urta mablag'lari (yagona ijtimoiy yig'imning 0,2 %), kasaba uyushmalari mablag'lari (1%lik badallar hisobidan), xo'jalik mablag'lari (davlat korxonalaridan tashqari) va ota-onalar mablag'lari. Davlat byudjeti hisobidan oromgoh tashkil qilinayotganda mablag' bilan ta'minlash manbalari quyidagicha shakllanadi: 75%gacha – ijtimoiy sug'urta, 20%gacha - kasaba uyushmalari, 5%gacha ota-onalar badallari hisobidan. Boshqa manbalar hisobidan oromgoh tashkil qilinsa, mablag' bilan quyidagicha ta'minlanadi: 50%gacha – ijtimoiy sug'urta, 20%gacha - kasaba uyushmalari,

25%gacha xo'jalik sub'ektlaridan va 5%gacha ota-onalar badallaridan³⁰. Xo'jalik shartnomalari balansida turgan bolalar yozgi oromgohlariga yo'llanmalarning namunaviy kalkulyatsiyasiga binoan yo'llanmalarning to'liq qiymatining 35,5%ini ijtimoiy sug'urta mablag'laridan, 17%ini kasaba uyushmalari mablag'laridan, 25%i xo'jalik tashkilotlari mablag'lari va 22,5%ini ota-onalar mablag'lari hisobidan qoplanadi. Yo'llanmalarning 77-78%ini ovqatlanishga, 20-22%ini xodimlar ish haqlariga, 1%i madaniy tadbirlarga hamda faqat sanator tipidagi oromgohlarda 1%i sog'lomlashtirish muolajalariga sarflanadi.

- Bolalar turizmi davlat ijtimoiy siyosatining istiqbolli masalalaridan biri hisoblanadi. Har bir oromgoh tarkibida bolalarning boshlang'ich tashkilotlarini tuzish, bolalar bilan tarbiyaviy-ma'naviy tadbirlar o'tkazish uchun pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassislar jalb qilinadi;

- Yozgi ta'til vaqtida bolalarning bo'sh vaqtlarini samarasiz o'tkazishlariga chek qo'yish, turli salbiy oqibatlariga olib keluvchi harakatlarning oldini olish, bolalarning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirish maqsadida ularga mo'ljallangan turli tipdagi yozgi oromgohlar katta o'rin tutadi;

- Nafaqat bolalarning, balki mamlakat jami aholisining sog'liq darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yozgi oromgohlarda bolalar dam olish bilan birgalikda, o'zlarining ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini tiklab, yanada mustahkamlashlari mumkin bo'ladi. Bolalarning sog'lom bo'lishi ularning ota-onalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bolalarining kasalligi sababli ota-onalardan birining ishga vaqtinchalik layoqatsizlik varaqasini ochishga va vaqtincha ishga bormasligiga sabab bo'ladi, ya'ni iqtisodiy jihatdan oilaviy byudjetga ma'lum darajada ziyon etkaziladi;

- Tashkiliy nuqtai nazardan bolalar turizmi tibbiy va pedagog xodimlarni jalb qilishni talab qiladi. Bolalarni doimo nazorat qilish va boshqarish zarurati mavjudligi tufayli ularni boshqa demografik guruhlardan farq qiladi. Shu sababli yozgi oromgohlarda bolalar shikastlanishining oldini olish va ularning dam

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi Rayosatining 2000 yil 17 fevraldagi Qarori bilan tasdiqlangan "Bolalarni kunduzgi dam olish va sog'lomlashtirish oromgohi bo'yicha Nizom"

olishini mazmunli o'tkazish maqsadida, oromgohga tibbiyot va pedagog xodimlardan iborat xizmatchi xodimlar tarkibi tashkil etiladi;

- Bolalar ovqatlanishini va joylashuvini tashkil etish sanitar-gigiena me'yorlariga rioya qilish ustidan alohida nazoratni amalga oshirishni talab qiladi.

Bolalar turizmi deganda asosan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlar faoliyati va ularda bolalarning dam olishi nazarda tutilishini ta'kidlab o'tgandik. Tahlillar natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, turli normativ hujjatlarda belgilanganidek, bolalar oromgohlarida 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar dam olishi mumkin, ammo ko'pincha 10-14 yoshdagilar bu oromgohlarda dam olishga ko'proq jalb qilinadi. O'zbekiston aholisining 10-14 yoshdagi bolalar guruhi qishloq aholisining 12-14%ini, shahar aholisining esa 10-11%i tashkil etib, shahar va qishloq aholisining shu yoshdagi guruhi mos ravishda 31% va 69% nisbatini tashkil etadi. Yozgi oromgohlarda esa ko'proq shaharda istiqomat qiluvchi bolalar dam oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar oromgohlarida dam oluvchi bolalarning 15-25% qishloq hududida istiqomad qiladi. Qishloq o'smir-yoshlari ham hamma qatori bir kunlik ekskursiyalarga boradi, xolos. Ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish uchun shaharlarga, tuman markazlariga ketgan qishloq yoshlari turli hududlarga sayohat qilishadilar. Ammo bu o'quv yili davomida dam olish kunlari, ya'ni shanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladi. Yozgi mavsumda esa ular o'z uylariga, qishloqlariga qaytishga oshiqishadi va buning asosiy sababi sifatida "uy ishlarida yordam berishim kerak, chunki ular meni boqishadi" deb izohlashadi.

Bolalar turizmi xizmatlaridan foydalanish uchun ota-onalar bolalari uchun o'zlariga qulay bo'lgan, arzonroq yo'llanmalarni xarid qilishga xarakat qilishadi. Shu sababli bolalar turizmi yo'llanmalari arzon narxda sotilishi kerak bo'ladi. Ammo yo'llanmalarning arzon narxlari xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning past ish haqi miqdorlarini ham anglatishi mumkin, natijada esa ularni bu ish qiziqitirmay qoladi. Oqibatda bunday ishlarga nisbatan past malakaga ega bo'lgan xodimlar qabul qilinadi. Bu o'z navbatida oromgohdagi xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy

ta'sir ko'rsatadi va bolalarga bo'lgan e'tibor keskin kamayib ketish ehtimoli kuchayadi. Demak bolalar oromgohda ularga ajratilgan e'tibor tarbiyachilar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar pastligi, ularning ushbu oromgohlarga qaytib kelmasliklariga, boshqalarga ham salbiy taassurotlari bilan bo'lishishiga sabab bo'ladi. Ammo bolalar bilan ishlaydigan xodimlarning bu sohada yuqori malakaga egaligi oromgohning obro'yini ko'tarishni, reklama vositasi sifatida ishlatilishini ifodalashi mumkin.

Bolalar turizmini tashkil qilishdagi yana bir muammo aloqa sifatida deb ko'rsatish mumkin. Shet el mamlakatlarida bolalar oromgohlarida paydo bo'lgan muammolar (tibbiy, ijtimoiy, maishiy va boshqalar) odatda telefon orqali hal qilinishi mumkin. Biroq mahalliy sharoitlarda bolalar oromgohlarining katta qismi qishloq hududlarida joylashgan, shu sababli ba'zan telefon qilish uchun tuman markazlariga borishga to'g'ri keladi.

Yana bir muammo – bolalar oromgohlarining davlat va korxonalar tasarrufida qolganligi. Ko'p hollarda korxonalarning moliyaviy holatlari bu oromgohlarning faoliyati bilan shug'ullanishga, uning moddiy-texnik bazasini ta'mirlash yoki yangilashga imkon bermaydi. Buning natijasida oldindan barpo etilgan oromgohlarning moddiy-texnik bazalari talon taroj qilinib, xarob axvolga keltirilmoqda.

Raqobat muhiti shakllanmaganligi hamda bolalarning ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatiga talabchan emasligi va katta ahamiyat bermasligi natijasida oromgohlardagi xizmat ko'rsatish tizimi deyarli bir xil. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida bolalarning zamonaviy talablarini inobatga olib, qo'shimcha xizmat ko'rsatishlarni taklif qiluvchi xususiy oromgohlarni tashkil etish va shu yo'l bilan raqobat muhitini yaratish maqsadga muvofiq. Bu oromgohlarning faoliyati bolalarning chet el oromgohlarida emas, mahalliy sharoitdagi oromgohlarda dam olishlarini ta'minlaydi va natijada valyuta oqimlari mamlakat hududida qoladi.

Yana bir dolzarb muammolaridan biri – bu mamlakatda shu sohadagi maxsus me'yoriy-huquqiy bazaning mavjud emasligi. Bolalar dam olishini tashkil

qilish, bolalar oromgohlari faoliyatiga oid alohida me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud emas.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar turizmi davlat tomonidan emas, balki ota-onalar va turli tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi va bu soha bilan bog'liq masalalar O'zbekistondan farqli ravishda davlatning ijtimoiy himoya dasturlarida katta o'rin egallamaydi.

Bolalarning chet elda turistik sayohatlarini tashkil etish uchun turistik firmalar tomonidan turlicha takliflar beriladi. Turli mamlakatlarning bolalar turizmi uchun taklif etayotgan turistik paketlarning narxi va ularga kiritilgan xizmatlar majmuasi turlicha bo'ladi, bundan kelib chiqqan holda turpaket qiymati ham turlicha bo'lishi mumkin. Misol tariqasida bir necha mamlakatlar turistik korxonalarining taklif etayotgan turlarni ko'rib chiqish mumkin. Turkiyaning bolalar oromgohlari bolalarni yotoqxonalarda 2-4 kishilik joylashuv va «hamma narsa kiritilgan» tizimda ovqatlanish kabi xizmatlar ko'rsatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, yo'l xarajatlari har bir xaridorning o'z hisobidan qoplanishi belgilangan.

Bolalar turizmi rivojlanishining asosiy omillaridan biri – bolalar xavfsizligini ta'minlash orqali ota-onalar ishonchini qozonishdir. Hozirgi vaqtda butun dunyoda mavjud ijtimoiy siyosiy vaziyatlarni inobatga olgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, ota-onalar o'z bolalarini uylaridan, o'zlarining e'tiborlaridan uzoqroq hududlarga yuborishni xohlamaydi. Shu sababli, bolalar oromgohlari asosan yirik shaharlar atrofida joylashgan. Ular bolalar turizmini tashkil etishning asosiy tarkibiy elementi hisoblanib, o'z faoliyat doiralariga muvofiq bir necha turlarga ajratiladi: bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari va markazlari; sport-sog'lomlashtirish oromgohlari; xalqaro darajadagi bolalar oromgohlari; ma'lum bir turdagi kasalliklarni davolashga ixtisoslashtirilgan sanator tipidagi oromgohlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar oromgohlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari har bir mamlakatda o'zining ijtimoiy siyosatidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi.

Masalan, AQSh bolalar yozgi oromgohlarning rivojlangan tizimiga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. Unda oromgohlarning quyidagi turlari mavjud:

shahsiy oromgohlar (private camps), ko'maklashuvchi (mustaqil oilaviy) oromgohlar (independent agency family owned camps), qiz yoki o'g'il bolalar uchun skaut oromgohlari (girl boy scout camps guides), kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun oromgohlar (disadvantaged camps), kunduzgi oromgohlar (day camps), ixtisoslashtirilgan oromgohlar, - jismoniy yoki aqliy nuqsonlari mavjud bolalar uchun oromgohlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, amerikalik ota-onalar oromgohlarga yo'llanmalarni xarid qilayotganlarida, unda ko'rsatiladigan ta'lim-tarbiyaviy xizmatlarga alohida e'tibor qaratishadi, chunki AQShdagi bolalar oromgohlarining dam olish dasturlar tarkibi 60-70% ta'lim-tarbiya xizmatlaridan tashkil topadi. Ota-onalar o'z farzandlarining chet tilini o'rganish, suzish, kamondan yoki boshqa o'qotar qo'rollardan otish, otda yurish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun oromgoh dasturlari bilan tanishgan holda yo'llanmalarni harid qilishadi. AQShdagi bolalar oromgohlarida dam oluvchi bolalarning 10-20% dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan bolalar tashkil etsa ham umumiy muloqot tili sifatida ingliz tili deb qabul qilingan.

Gretsiya uchun ham bolalar turizmi istiqbolli turizm yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, shu sababli bu yerda Evropaning mashhur bolalar oromgohlari joylashgandir. Bu yerdagi oromgohlar dam olish va sog'lomlashtirishga ixtisoslashgan bo'lib, asosan dam olish hududlarida, dengiz sohillarida yoki ulardan 10-15 km. uzoqlikda tashkil etilgandir. Ushbu oromgohlar ham statsionar inshootlarda, ham sayyor turistik oromgohlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda Gretsiyada 20taga yaqin xalqaro darajadagi bolalar oromgohlari (kampinglar) mavjud. Bu oromgohlar iyun oyi ohirlaridan, avgust oyigacha faoliyat yuritishib, har biri 250-900 bolani bir vaqtda qabul qilish imkoniyatiga ega.


Rossiyada ham bolalar uchun mo'ljallangan dam olish va sog'lomlashtirish oromgohlarining quyidagi turlari faoliyat olib boradi: bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, kunduzgi bolalar oromgohi, sanatoriya tipidagi oromgohlar, mehnat oromgohlari, dam olish kuni oromgohlari, ta'lim beruvchi oromgohlar, sport

oromgohi, ma'lum bir bolalar tashkilotlari bazasida tashkil etilgan oromgohlar, ixtisoslashgan oromgohlar.

Ushbu mamlakatlarning bolalar yozgi oromgohlari tasniflarini va O'zbekistonda mavjud bolalar oromgohlarining turlarini taqqoslama tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- AQShda 8 turdagi, Rossiyada 9 turdagi bolalar oromgohlari faoliyat olib boradi, vaholanki O'zbekistonda, jumladan Xorazm viloyatida 3 turdagi (sanatoriya tipidagi, sog'lomlashtirish va sport) oromgohlari mavjud;

- Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar oromgohlarini o'rganish natijasida ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq (2.2.1.-chizma):



2.2.1.-chizma. Bolalar oromgohlarining tasniflanishi³¹

- AQSh va Gretsiya kabi mamlakatlarda bolalar oromgohlari to'liq o'z-o'zini moliyalashtirish, ya'ni tijorat asosida faoliyat olib boradi. Rossiyada bolalar oromgohlarining bir qismi dotatsion asosda, bir qismi esa tijorat asosida

³¹D.Z.Norqulova. O'zbekistonda sanator-kurort xizmatlarini takomillashtirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2016 yil

moliyalashtiriladi. Chet elda oromgohlar shahsiy, ya'ni tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan va kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun mo'ljallangan oromgohlarga, homiylik mablag'lari asosida faoliyat olib borayotgan oromgohlarga bo'linadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistondagi barcha oromgohlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi hamda afsuski, xalqaro darajadagi bolalar oromgohlari mavjud emas.

2.3. Xorazm viloyatida turizm xizmatlar bozorining rivojlanish holati va tahlili

Sayyohlik uchinchi ming yillik boshida jahon iqtisodiyotining daromad keltiruvchi va davlat byudjetiga valyuta tushumini ta'minlovchi muhim tarmoqlardan biriga aylandi. Jahon tovarlar va xizmatlar eksportida hozirgi paytda turizm ulushiga butun jahon eksportining 8%ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30 %i, jahon yalpi mahsulotining 11%i, jahon kapital qo'yilmalarining 9%i, jahon iste'mol xarajatlarining 11%i, butun dunyo soliq tushumlarining 5 %i to'g'ri keladi. Bundan tashqari turizm aholining bandligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston betakror, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, shirin-shakar mevalari, xilma-xil milliy taomlari, ajoyib milliy an'analari, o'ziga xos urf-odatlariga ega bo'lgan mehmondo'st xalqiga ega. Bularning barchasi chet ellik sayyohlarni e'tiborini o'ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi.

Qo'hna Xorazm viloyati Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan bo'lib, O'zbekistonning eng yuqori sayyohlik salohiyatiga ega mintaqalardan hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq osmon ostidagi muzey-shahar sifatida e'tirof etilishi hamda YUNESKO Butun jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi nafaqat Xorazm viloyati, balki O'zbekistonning jahon turizm bozoriga zalvorli qadamlar bilan kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Xorazm viloyati iqtisodiyotida turizm sohasi muhim o'rin tutadi. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 0,85 foizi, eksportning 1,3 foizi ushbu soha hissasiga to'g'ri keladi³².

Xorazm vohasida neolit davridan to XIX asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan 255 dan ortiq madaniy meros yodgorliklari mavjud. Ulardan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi me'morchilik, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 tasi muqaddas joylardir. Bu noyob turistik resurslar, asosan, Xiva va Urganch shaharlarida joylashgan. Biroq, bunday yodgorliklar viloyatning boshqa tuman va shaharlarida ham ko'p uchraydi (2.3.1-jadval).

Mana shunday beqiyos madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob obidalaridan dunyo ahlini xabardor qilish va bu yerga imkon qadar ko'proq xorijiy sayyohlarni jalb etish ushbu sohani yaqin kelajakda rivojlantirishning eng dolzarb vazifalaridandir. Viloyatda ko'plab tarixiy-me'moriy obidalarning mavjudligiga qaramasdan, hanuzgacha ular to'g'risidagi dalillarni o'z ichiga olgan ma'lumotnoma tuzilmagan.

Hozirgi kunda Bog'ot tumanidagi "Qal'ajiq" qal'asi, Urganch tumanidagi "Ulli hovli" obidasi, Xiva tumanidagi "Bog'ishamol" yozgi bog'i, "Shodira" bog'lari va "Eshonravot" ko'llari bo'ylab yangi turistik yo'nalishlarni ochish mumkin.

³² Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Toshkent-2014.110-bet.

2.3.1.-jadval

Xorazm viloyatining turistik resurslari³³

Turistik resurslar	Tarkibi	Geografik tarqalishi
<i>Tabiiy resurslar hamda biologik xilma-xillik</i>	Sho'llarning tabiati, er usti reliefi, flora va faunasi	Butun viloyat hududida
<i>Amudaryo va uning havzasi</i>	Daryo, uning sohilidagi rekreatsiya resurslari, daryo o'zanidagi to'qayzor va o'rmonlar, o'simliklar dunyosi	Bog'ot, Xonqa, Urganch, Hazorasp tumanlari
<i>Arxeologik turizm resurslari</i>	Qadimiy Xorazm poytaxtlari oltin halqasi, qadimiy qal'alar, arxeologik tomilmalar	Xiva, Urganch, Shovot, Hazorasp, Qo'shko'pir tumanlari
<i>Tarixiy obidalar bilan bog'liq resurslar</i>	Tarixiy obidalar	Xiva, Urganch shaharlari va Shovot, Bog'ot, Hazorasp, Yangiariq tumanlari
<i>Diniy ziyoratgohlar</i>	Yusuf Hamadoniy, Pahlavon Mahmud, Shayxmuxtorvali, Norimjon bobo ziyoratgohlari va viloyat tumanlaridagi boshqa muqaddas qadamjolar	Xiva, Urganch, Bog'ot, Yangiariq tumanlari
<i>Turizmning maxsus turlari</i>	Hunarmandchilik, urf-odatlar, milliy san'at va o'yinlar	Butun viloyat hududida

Bundan tashqari viloyatda ekologik turizmni rivojlantirish uchun ham ulkan salohiyat mavjud. Bog'ot, Xonqa, Yangibozor, Urganch tumanlarida Amudaryo sohilida ekologik turizm va mehmonxona xo'jaligi xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Mintaqadagi "Qizilqum" davlat qo'riqxonasi zonasida ham ekologik turizmni yo'lga qo'yish mumkin. Ushbu qo'riqxona Amudaryoning o'rta oqimi qismida, asosan Xorazm viloyatining Hazorasp va qisman Buxoro viloyatining Romiton tumanlarida joylashgan. Qo'riqxonaning umumiy maydoni 10 ming 311 gektarni tashkil etadi. Uning 86 foiz hududi Hazorasp tumaniga to'g'ri keladi. Qo'riqxona asosan to'qayzorlardan va qisman cho'ldan iborat.

³³Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi.Toshkent-2014. 111-bet.

Qo'riqxonada 150 dan ortiq flora, 86 xil hayvon va 267 xil qushlar bor. Shulardan 8 xil baliq, 1 ta sudralib yuruvchi, 18 xil qush va 2 xil hayvon "Qizil kitob" ga kiritilgan. Bu erning o'ziga xos tabiati va landshafti sayyohlarning qo'riqxona bilan yaqindan tanishish ishtiyoqini oshiradi. Shu qo'riqxona negizida Amudaryo sohilida ekologik turizm va mehmonxona xo'jaligi xizmatlarini rivojlantirish hamda sayyohlarga tuya va otda ekskursiyaga chiqishni tashkil etish imkoniyatlari bor.

Xorazm viloyatida muayyan rekreatsion resurslar ham mavjud. Masalan, Xiva tumanidagi "G'ovukko'l" va "Eshonravot" ko'llari bo'yida sayyohlik majmui yaratish va baliqchilikni rivojlantirish, chodirlar, suzish vositalari ijarasi xizmatlari hamda cho'milish havzalari infratuzilmasini tashkil etish nafaqat mintaqaning, balki Qoraqapog'iston Respublikasi, Buxoro va Navoiy viloyatlari aholisida ham hordiq chiqarishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Kelajakda esa xizmat ko'rsatish va servis sifatini oshirish evaziga bu joyga boshqa viloyatlarga chet ellik sayyohlarni ham jalb etish mumkin.

Mintaqada turizmni rivojlantirishning yana bir yo'nalishi Hazorasp, Bog'ot, Xonqa, Urganch va Gurlan tumanlarida shifobaxsh er osti suvlarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Ularning negizida istiqbolda tibbiy xizmatlarni ham yo'lga qo'yish bilan meditsina turizmini rivojlantirish mumkin.

Xorazm viloyati sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish borasida ko'proq rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, reklama va marketing tadbirlarini yangi asosda tashkil qilish, tarixiy obidalarga tegishli o'ziga xos afsonalarni yozib olish va tarqatish hamda yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etish kerak.

O'tkazilgan tahlillar Xorazm viloyatiga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni yildan-yilga o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Viloyatga har yil o'rtacha ellik mingdan ziyod sayyohlar tashrif buyuradi. Ularning tarkibida xorijlik sayyohlar salmoqli o'rinni egallaydi (2.3.2-jadval)

2.3.2-jadval

Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlanish dinamikasi³⁴

№	Yillar	Tashkilotlar Soni			Kelgan sayyohlar soni(ming.kishi)		
		Jami	Mehmon-xonalar	Sayyohlik Firmalari	Jami	Shundan	
						Xorijiy	Maxalliy
1	2001	13	12	1	45,5	24,2	21,3
2	2002	14	13	1	36,6	21,5	15,1
3	2003	10	9	1	23,4	16,1	7,3
4	2004	10	9	1	47,3	23,9	23,4
5	2005	12	11	1	34,7	18,6	16,1
6	2006	12	11	1	31,0	26,1	4,9
7	2007	15	13	2	42,0	37,0	5,0
8	2008	17	15	2	45,8	41,8	4,0
9	2009	17	15	2	47,7	37,8	9,9
10	2010	22	19	3	49,1	37,0	12,1
11	2011	25	21	4	55,0	38,3	16,7
12	2012	30	23	7	63,0	47,4	16,6
13	2013	36	26	10	73,0	53,3	19,7
14	2014	45	29	16	67,7	46,2	21,5
15	2015	52	35	17	63,4	40,6	22,8
16	2016	72	52	20	75,8	46,6	29,2

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yillarida xorijlik sayyohlar soni biroz kamayganiga qaramasdan, 2012 yildan boshlab ularning soni bo'yicha inqirozdan avvalgi ko'rsatkichlar tiklanmoqda, shuningdek mahalliy sayyohlar sonida ham sezilarli o'sish kuzatilayotir. Turizm sohasini rivojlanishida ro'y berayotgan bunday ijobiy o'zgarishlar, avvalo, respublikamiz turizmining globallashuvi hamda jahon sayyohlik bozorida sodir bo'layotgan kuchli o'sish bilan bog'liqdir.

Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan 2013 yil 20- martda qabul qilingan "Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish" Dasturi, "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks" Dasturlari va hukumatimiz tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga

³⁴ O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Xorazm viloyati mintaqaviy bo'limi ma'lumotlari.


oshirilishi, mamlakatimiz sayyohlik salohiyatining jahon turizm yarmarkalarida muntazam namoyish etilishi, Toshkent shahrida an'anaviy "Buyuk ipak yo'li bo'ylab turizm" yarmarkasining muntazam o'tkazib kelinayotgani, Xorazm vohasini boshqa turistik markazlar bilan tutashturuvchi yo'l infratuzilmasining yaxshilanayotganligi, turizm xizmatlari sifatining o'sib borayotganligi kabi omillar viloyatda turizmning izchil rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar xorijlik sayyohlar ba'zan Xorazmga tashrif buyurishni rejalashtirmasliklariga bu yerdagi mavjud afzalliklar haqida etarli ma'lumotlarga ega emasliklari sabab bo'layotganini ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda xorijiy sayyohlar Xorazmga tashriflari davomida olgan taassurotlari Samarkand va Buxoro ziyoratidagidan aslo kam emasligini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, xalqaro turizm axborot vositalarida turli xalqlar taomlarini tayyorlash faqat Toshkent shahrida yaxshi rivojlanganligi, boshqa joylarda, xususan Xorazmda chet ellik sayyoxdar uchun ovqatlanish joylari nisbatan chegaralanganligi ham aytilgan.

Shuningdek, Xorazm viloyatiga 2015 yilda dunyoning 82 tadan ortiq mamlakatidan xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan. 2016 yilda esa dunyoning 84 tadan ortiq davlatidan xorijiy sayyohlar kelgan.

2.3.1-diagramma

2015-2016 yillarda Xorazm viloyatiga dunyoning 5 ta yetakchi mamlakatidan eng ko'p tashrif buyurgan sayyohlar o'sish dinamikasi³⁵



³⁵ O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2015 yilda Xorazm viloyatiga dunyoning etakchi mamlakatlaridan bo'lgan Germaniyadan 4953 nafar, Fransiya 4696 nafar, Italiya 3034 nafar, Ispaniyadan 2471 nafar, Yaponiyadan 2058 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2016 yilda esa Germaniyadan 5378 nafar, Fransiya 6128 nafar, Italiya 3748 nafar, Ispaniyadan 2369 nafar, Yaponiyadan 3017 nafar sayyoh vohamizga tashrif buyurgan.

Shu bilan birgalikda, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) davlatlaridan 2015 yil davomida 5767 nafar va 2016 yilda 6600 nafar sayyohlar tashrif buyurgan va 14 foizga oshgan.

Bundan tashqari, mahalliy sayyohlar soni 2015 yilda 22767 nafar va 2016 yilda 29200 nafardan ortiqni tashkil qilib, 28 foizga oshgan.

2.3.3-jadval

2015- 2016 yillarda viloyatda jami qabul qilingan sayyohlar (ming kishi)³⁶

	Jami qabul qilingan sayyohlar, shu jumladan:	2015 yil	2016 yil	O'sish tendentsiyasi (foiz hisobida)
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	22,767	29,201	28
	Xorijiy fuqarolar	34,822	40,014	15
	MDH mamlakatlari fuqarolari	5,767	6,600	14
	Jami	63,356	75,815	20

Madaniy va tabiiy resurslar bo'yicha Xorazm viloyati jahon miqyosida muhim o'rin tutadi. Mavjud resurslar viloyat turizm imkoniyatlarini chuqur diversifikatsiya qilish va sayyohlik mavsumini uzaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, Xorazm tarixdan ilm-fan markazlaridan biri sifatida dovrug' qozongan. Aholi tarkibida yoshlar ulushi 59%ni tashkil etishi xam viloyat inson resurslari

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat Qo'mitasi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

borasida katta salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ayni vaqtda sayyohlik sohasida malakali kadrlar etishmasligi sezilmokda. Sayyohlarga xizmat ko'rsatishning eng kuyi darajalaridan to boshqaruv darajasigacha bo'lgan bo'g'inlarda bu sohada etarli tayyorgarlikdan o'tgan malakali kadrlarga ehtiyoj kagga. Bu boradagi rakobatni kuchaytirish maqsadida ish jarayoniga xorijlik mutaxassislarni jalb etish imkoniyati ham mavjud.

Xorazm viloyatida 2030 yilgacha bo'lgan davrda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish masalasi iqtisodiyot, demografiya, ekologiya, texnologiya va boshqa sohalarga oid bir qator omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Jaxonda qariyb oltmish yildan buyon xalqaro turizm barqaror rivojlanayotgani, Uzbekistonga yaqin joylashgan Xitoy, Hindiston, Rossiya, Yaqin Sharq va Sharqiy Osiyodagi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ham turizm xizmatlariga bo'lgan talabning kun sayin ortib borayotgani;
- Buyuk ipak yo'li va Sharq madaniyatini o'zida aks ettirgani mamlakatlar bo'ylab sayohat qilish ko'plab G'arb davlatlari aholisi uchun qiziqarli yo'nalishga aylanib borayotgani, tarixiy-madaniy turizmning ommalashuvi;
- Dunyo aholisi, xususan sayyoxdar orasida ekologik muammolarni chuqurroq anglash maqsadida atrof-muhitga kuchli zarar etayotgan mintaqalarni shaxsan borib ko'rishga qiziqish ortayotgani;
- Sayyohlarda turli millatlarning etnografik, madaniy va milliy taomlariga (gastronomik turizm) qiziqishning tobora kuchayayotgani;
- Yoshlar orasida faol dam olishga (sport, ov qilish, ekstrimal turizm va h.k.) qiziqishning ortishi;
- Barcha yoshdagi kishilarning dunyo bo'ylab oilaviy sayohat qilish borasida turli xil yangi talablari paydo bulayotgani va b.

Sayyohlik sohasi rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatishicha, turizmni rivojlantirish uchun, uzok muddatli tendentsiyalarni hisobga olgan holda, tegishli infratuzilma hamda bir qator zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Shu ma'noda

Xorazm viloyatida turizm sohasining jadal rivojlanishini ta'minlash, respublika va xalkaro miqyosda mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish mazkur Strategiyaning bosh maqsadi xisoblanadi.

Turizmning Strategiyada belgilanganidek muvaffaqiyatli taraqqiy etishi viloyat hokimiyati, "O'zbekiston respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi" ning viloyat bo'limi va boshqa bir qator mas'ul tashkilot va mahalliy turbiznes vakillarining o'zaro kelishilgan holda faol ish olib borishlariga boglikdir. Strategiyaning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, Xorazm viloyatida turizm sohasini Samarkand va Buxoro viloyatlari darajasiga etkazish uzoq muddatga belgilangan vazifalardan biri xisoblanadi. Buning uchun esa Xorazmning jahon turizm bozorida yetakchi markazlardan biri sifatida o'z o'rnini topishi va unga tashrif buyuradigan sayyohlar sonining salmoqli darajada o'sishiga erishish lozim.

II-BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Ijtimoiy jamg'arma – fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida ta'sis etilgan tashkilot. Ijtimoiy jamg'armalar hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlab tuziladi, ularning a'zolari bo'lmaydi. Ijtimoiy jamg'armaning rahbar organini ta'sischi va qatnashchilar tomonidan qurultoy yoki umumiy majlisda saylash yo'li bilan tuzilishi asoslab berildi.

2. Sotsial turizm ishtirokchilari asosan mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar, o'smirlar, qariyalar, nogironlar va doimiy moliyaviy daromadga ega bo'lmagan yoshlar hamda kam ta'minlangan odamlardan iborat.

3. Bolalar turizmi deganda asosan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlar faoliyati va ularda bolalarning dam olishi tushuniladi. Turli normativ hujjatlarda belgilanganidek, bolalar oromgohlarida 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar dam olishi mumkin. Ammo ko'pincha 10-14 yoshdagilar bu oromgohlarda dam olishga ko'proq jalb qilinadi. Qishloq aholisining 12-14%ini 10-14 yoshdagi bolalar tashkil etsa, shahar aholisining 10-11%ini tashkil etadi. Ammo shahar va qishloq

aholisining 10-14 yoshdagilar ulushlari nisbatini 31% va 69%larni tashkil etadi. Yozgi oromgohlarda esa ko'proq shaharda istiqomat qiluvchi bolalar dam oladilar.

4. Bolalar o'z moliyaviy manbalariga ega emasligi tufayli sayohatni mustaqil amalga oshira olmaydi. Shuning uchun bolalar turizmi davlat, korxona (tashkilotlar), ota-onalari va homiylar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatda ham bolalar turizmini yanada rivojlantirish uchun katta miqdorlarda (boshqa turizm turlariga nisbatan) dotatsiyalar ajratiladi. Ular asosan bolalarni sog'lomlashtirish va ularning dam olishiga mo'ljallangan yozgi oromgohlarning moddiy-texnik bazasini shakllantirish va rivojlantirishga sarflanadi.

5. AQSh bolalar yozgi oromgohlarning rivojlangan tizimiga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. Unda oromgohlarning quyidagi turlari mavjud: shahsiy oromgohlar (private camps), ko'maklashuvchi (mustaqil oilaviy) oromgohlar (independent agency family owned camps), qiz yoki o'g'il bolalar uchun skaut oromgohlari (girl boy scout camps guides), kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun oromgohlar (disadvantaged camps), kunduzgi oromgohlar (day camps), ixtisoslashtirilgan oromgohlar, - jismoniy yoki aqliy nuqsonlari mavjud bolalar uchun oromgohlar hisoblanadi.

III-BOB. XORAZM VILOYATI AHOLISI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA SOTSIAL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

3.1. Viloyat aholisini turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Xorazmda turizmni rivojlantirishda eng asosiy vazifalardan biri turistik mahsulotni mukammallashtirish, uning sifatini oshirish asosida turistik mavsumni uzaytirishdir. Viloyatda turizm sohasidan keladigan pul tushumini oshirish uchun sayyohlarning yakka tartibda qulay va maroqli sayohat qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ya'ni viloyatning barcha, ayniksa sayyohlar uchun tushuvarli bo'lgan xaritasini ishlab chiqish, ular ko'p yig'iladigan joylarda turistik ofis yoki markazlar tashkil qilish, ko'chalarda va transportda xorijiy tillarda ham belgilar o'rnatilishiga e'tibor qaratish lozim,

Ko'p yillardan buyon davom etayotgan tarixiy-me'moriy turizmga ixtisoslashish bilan birga, ayni vaqtda uning yangi ekologik va gastronomik turlari bozorini ham o'zlashtirish kerak. Turizm mahsulotlarini diversifikatsiyalash va ularning jozibadorligini oshirish uchun boshqa mintaqalar, ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasining sayyohlik tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni keng yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Global internet tarmoqlarida Xorazmga tashrif buyurgan ko'plab sayyohlar Qoraqalpog'istondagi Ayoq qal'aga ham sayohat qilganliklari va bundan unutilmas taassurotlar olganliklari haqida yozganlar. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy xokimiyat organlari va sayyohlik tashkilotlarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari har ikki tomonning ham madaniy va tabiiy turizm resurslaridan yanada kengroq foydalanish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiyalash imkonini beradi. Shunday yo'l bilan turizm rivojlanishidan periferall tumanlar ham foyda ko'rishlariga, Xorazm madaniyati osori atiqalariga bo'lgan ortiqcha yuklamani kamaytirishga erishiladi

Turizm xizmatlari sifatini oshirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Fan va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotgani turizm sohasida ham

yuqori sifatli, hech qanday kamchiliklarsiz xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Qolaversa, bu -hozirgi kun talabidir.

Shu bois xam har bir sayyohning xohish-istagini hisobga olib ish tutishga to'g'ri keladi. Xizmatlar sifatini yaxshilash uchun bu boradagi xalqaro standartlarni o'rganish va ularni soxa vakillariga etkazish darkor. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro andozalar bo'yicha sifatga qo'yilayotgan yangi-yangi talablar bilan turizm sohasi va boshqa tegishli sohalar vakillarini muntazam tanishtirib borish kerak.

Masalan, xizmatlar sifatini oshirish uchun Turkiyada professional malakani sertifikatlash tizimi joriy etilgan. Uning doirasida turizm, ovqatlanish va boshqa xizmat sohalarida "Iste'molchiga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish" kontseptsiyasi keng targ'ib etiladi, xodimlarda muomala madaniyati, har bir mijozga xurmat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasi tarbiyalanadi.

Mehmonxona va boshqa joylashtirish muassasalari uchun xalqaro standartlar asosida milliy talablarni o'rnatish va turizm soxasida faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorag tashkilotlar yordamida xizmat ko'rsatish sifatini monitoring qilib borish maqsadga muvofikdir.

Sotsial turizmning ijtimoiy-demografik hususiyatlari aholining yosh tarkibida, maktab o'quvchilarining guruhlanishi, o'rta maxsus va oliy o'quv yurti muassasalari talabalar soni, pensionerlar va nafaqaxo'rlarning, nogironlarning miqdoriy tahlilida aks ettiriladi.

Xususan, so'nggi yillarda Xorazm viloyatida maktab o'quvchilarining yoz mavsumida dam olish va sog'lomlashtirish oromgohlariga keng jalb qilinmoqda. Xorazm viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan 2016 yil yozgi mavsum davomida viloyat bo'yicha jami 33 ta oromgoh faoliyat ko'rsatib, 11240 nafar bola sog'lomlashtirilgan va dam oldirilgan, 2015 yilda 11190 nafar bola sog'lomlashtirilgan hamda dam oldirilgan. 2014 yilda Xorazm viloyati bo'yicha yozgi mavsumda o'quvchi yoshlarni sog'lomlashtirish va dam olish uchun 1920000 ming so'm mablag' sarflangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich mos ravishda 2015 yilda 1644636 ming so'm, 2016 yilda esa 1361212 ming so'm mablag'

ajratilgan. 2016 yilda viloyat bo'yicha o'quvchi yoshlarni sog'lomlashtirish va dam olish uchun ajratilgan mablag'lar 2014 yilga nisbatan 2 barobardan ziyod ajratilgan. Shuningdek, viloyat bo'yicha sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olgan o'quvchilarning ulushi Urganch, Xiva va Xozarasp tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor ekanligi, xususan yildan yilga sotsial turizm xizmatlarini rivojlanayotganligini, xulosa qilib aytganda viloyat aholisining turmush farovonligini oshayotganligidan dalolat beradi. (3.1.1-jadval)

3.1.1-jadval

2014-2016 yillarda Xorazm viloyati bo'yicha yozgi mavsumda sog'lomlashtirish va dam olishga jalb qilingan o'quvchi yoshlar³⁷

№	Shahar, tumanlar	2014 yil		2015yil		2016 yil	
		sog'-n bolalar soni	sarf. mablag' miqdori (ming.so'm)	sog'-n bolalar soni	sarf. mablag' miqdori (ming.so'm)	sog'-n bolalar soni	sarf. mablag' miqdori (ming.so'm)
1	Urganch shahar	880	106024	880	128705	900	74705
2	Yangibozor	640	58662	640	114613	670	130721
3	Gurlan	960	38004	960	126169	960	82613
4	Shovot	970	44736	985	152998	985	141687
5	Qo'shko'pir	900	39865	900	119212	900	77819
6	Xiva	1450	80315	1450	217361	1450	169239
7	Yangiariq	600	27120	630	89194	630	68369
8	Xonqa	1565	101659	995	159424	990	184577
9	Bog'ot	870	34032	900	118253	900	77819
10	Xozarasp	1090	36624	1090	137423	1090	84469
11	Urganch tumani	1090	62352	1560	245743	1540	236179
12	Sotib olinadigan yo'llanmalar	175	28287	200	35541	225	42795
	Viloyat bo'yicha	11190	1920000	11190	1644636	11240	1361212

³⁷ Xorazm viloyati Kasaba Uyushmalari Tashkilotlari Birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ularni yozgi sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish, yozgi ta'tillarini sermazmun va qiziqarli qilib o'tkazish borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda.


O'quvchi yoshlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, yozgi mavsumda ularni dam oldirish va sog'lomlashtirishni tashkil etish maqsadida har yili viloyat hokimi va viloyat kasaba uyushma tashkilotlari birlashmasining qo'shma qarori qabul qilinib, bu boradagi rejalar muntazam ravishda oshig'i bilan bajarilib kelinmoqda.

Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish yuzasidan tizimli nazorat va monitoringni ta'minlash bo'yicha Respublika Muvofiqlashtiruvchi guruhning qarorlariga binoan "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari, kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar farzandlaridan 7700 nafari 2012-2016 yillarda Toshkent, Qashqadaryo viloyatlaridagi so'lim va xushmanzara oromgohlarida bepul sog'liklarini tiklab dam olib qaytdilar.

Jumladan, 2012 yilda viloyat bo'yicha 1700 nafar kam ta'minlangan ko'p bolali oila farzandlarini bepul dam oldirish va sog'lomlashtirish maqsadida Toshkent va qashqadaryo viloyatlariga yuborilgan. Shunga mos ravishda 2013 yilda 1500 nafar, 2014 yildan 2016 yilgacha 1500 nafardan kam ta'minlangan ko'p bolali oila farzandlarini bepul dam oldirildi va sog'lomlashtirildi.

3.1.1 -diagramma

**Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari oromgohlarida kam ta'minlangan ko'p bolali oila farzandlarini bepul dam oldirish va sog'lomlashtirilishi.³⁸
(nafar bola)**



“Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilaridan 60 nafari Toshkent viloyatidagi oromgohlarda, 45 nafari Xiva tumanidagi “Alpomish” oromgohida, viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi “Mahalla” xayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda kam ta'minlangan oilalarning farzandlaridan 84 nafari bepul, jamoa shartnomalari orqali imtiyozli va bepul tarzda ehtiyojmand oilalarning 2200 dan ortiq farzandlari sog'lomlashtirildi.

Shuningdek, bolalarning qiziqishlarini inobatga olib 15 ta ixtisoslashgan oromgohlar (1 ta harbiy-sport, 1 ta intellektual rivojlantirish, 1 ta ekologik-biologik, 1 ta

³⁸ Xorazm viloyati Kasaba Uyushmalari Tashkilotlari Birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

o'lkashunoslik, 1 ta texnik ijodkorlik, 1 ta badiiy ijodiyot, 10 ta "Mehnat va dam olish" oromgohlari) faoliyati tashkil etilib, ularda 2626 nafar bolalar dam oldirildi.

Bolalarni yozgi dam oldirish va sog'lomlashtirish tashkilotchilarining VI Respublika Forumida viloyatdan 2016 yil yoz mavsumida faoliyat ko'rsatgan statsionar oromgohlar o'rtasida Xiva tumanidagi "Alpomish" oromgohi "Eng namunali statsionar oromgoh", mehnat va dam olish oromgohlari o'rtasida Bog'ot tumanidagi "Xorazm teks" MChJ qoshida tashkil etilgan mehnat va dam olish oromgohi "Eng namunali mehnat va dam olish oromgohi", "Eng yaxshi hamkor" – Xorazm viloyati madaniyat va sport ishlari boshqarmasi, "Eng yaxshi bolalar oromgohi sport bo'yicha yo'riqchisi" – Urganch shahridagi "Futbolchi" statsionar bolalar oromgohi sport bo'yicha, "Eng yaxshi bolalar oromgohi to'garak rahbari" - Xiva tumani "Alpomish" statsionar bolalar oromgohi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish, ularning vaqtlarini mazmunli o'tkazish, hamda dam oldirish va sog'lomlashtirish davomida ularning to'laqonli sog'liqlari tiklanishiga harakat qilinishi ta'minlanadi.

3.2 Xorazm viloyati oromgohlarda da bolalarning sotsial turizmdagi rolini baholash.

Xorazm viloyatidagi oromgohlarda bugungi kunda ko'plab bolalar dam olib kelishmoqda. Shundan 2016 yilda viloyatimizdagi 251884 ming bolalar mavjud bo'lib undan 11240 nafar bola sog'lomlashtirildi. Bundan tashqari har yili Toshkent va Qashqadaryo viloyatiga 1500 nafar bola dam olib qaytadilar. Xorazm viloyatidagi 251884 ming bola bu 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalarni tashkil qilgan bo'lib, asosan oromgohlarga jo'natilgan yoshlar 7-14 yoshdagi bolalargacha bo'lgan bolalardan tashkil topgan.


3.2.2 jadval

Xorazm viloyatida 2012 -2016 yillarda 7-14 yoshgacha jami bolalar soni va oromgohlarda dam olgan bolalar soni.³⁹

<i>Yillar</i>	7-14 yosh bo'lgan jami bolalar soni(x)	Oromgohlardagi bolalar soni.(y)	Y/X*100
2012	244175	12200	5,00
2013	241564	10990	4,55
2014	244243	11190	4,58
2015	248150	11190	4,51
2016	251884	11240	4,46

Quyidagi jadval orqali 2012 yildan 2016 yilgacha Xorazm viloyatida 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan jami bolalarning soni va oromgohlarda dam olganlar va sog'lomlashtirilgan bolalar sonini ko'rishingiz mumkin. Bu jadval orqali oromgohda xordiq chiqargan bolalar sonining viloyatimizdagi 7 yoshdan 14 yoshgacha jami bolalar soniga nisbatini ko'rishimiz mumkin.

3.2.2- diagramma. Xorazm viloyatida Kasba uyushmasi tomonidan dam olishga yuborilgan bolalarning 7-14 yoshdagi jami bolalarga nisbatan ulushini o'zgarish dinamikasi.



³⁹ Xorazm viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ma'lumotlar va statistika bopshqarmasi ma'lumotlari asosida.

Biz tadqiqotimizda Xorazm viloyati kasab uyushmasi tomonidani bolalarni viloyatdagi oromgohlarda dam olish va sog'lamlashtirish bo'yicha amalga oshirib kelayotgan chora-tadbirlarini tahliliy o'rganib chiqmoqchimiz. Mazkur jarayonni tahlil qilish maqsadida 2012-2016 yillar mobaynida oromgohlarda dam olgan va sog'lomlashtirilgan bolalar sonini viloyatdagi 7-14 yoshdagi jami bolalar soniga nisbatini diagramma-3.1.2 yordamida ko'rib chiqmoqchimiz.

Mazkur tahlilni amalga oshirishdan maqsadimiz viloyatdagi bolalarni oromgohlar va sog'lomlashtirish maskanlarida xordiq chiqarishlarini tashkil qilishda bolalar sonini inobatga olinish holatini ko'rsatib o'tmoqchimiz. Bu yerdagi ma'lumotlardan ko'rshimiz mumkinki oromgoh va sog'lomlashtirish maskanlariga kasaba uyushmasi tomonida yuborilayotgan bolalarning umumiy bolalar soniga nisbatan kamayyotganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur ko'rsatkich 2012 yilda 5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilga kelib 4.46 foizga tushib qolgan. Fikrimizcha kasaba uyushmasi tomonidan umumiy bolalar sonini inobatga olgan holda oromgohlarda va sog'lomlashtirish maskanlarida xordiq chiqarishga yuboriladigan bolalar sonini aniqlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tatqiqotni yana davom ettirgan holda yuqorida Xorazm viloyatini ko'rib chiqqan bo'lsak, endi tumanlar kesimida dam olgan va sog'lomlashtirilgan bolalarning har bir tuman va oromgoh kesimida tahlil qilamiz.


Biz yuqorida olib borilgan tahlilni natijalariga asoslangan holda viloyatda kasaba uyushmasi tomonidan dam olish va sog'lomlashtirish maskanlariga jo'natilgan bolalar bilan jami 7-14 yoshdagi bolalar soni o'rtasidagi regression-korrelyatsion tahlilni amalga oshirib o'tmoqchimiz. Mazkur tahlilni amalga oshirish maqsadida biz viloyat hududlari kasaba uyushmalari tomonidan 2012-2016 yillarda dam olish va sog'lomlashtirish maskanlariga jo'natilgan bolalar sonini yillar kesimida hamda hududlar kesimida olib chiqdik.

3.2.3- jadval

2012-2016 yillarda tumanlar kesimidagi 7-14 yoshdagi jami bolalar va oromgohda dam olgan bolalar⁴⁰

	Yillar	2012-yil		2013-yil		2014-yil		2015-yil		2016-yil	
№	Tumanlar	7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni	Oromgohda dam olganlar	7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni	Oromgohda dam olganlar	7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni	Oromgohda dam olganlar	7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni	Oromgohda dam olganlar	7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni	Oromgohda dam olganlar
1	<i>Urganch shahar</i>	18156	900	17780	880	18282	880	18742	880	19350	900
2	<i>Bog'ot tumani</i>	20294	900	20222	870	20372	870	20739	900	20861	900
3	<i>Gurlan tumani</i>	21060	1060	20576	960	20875	960	21289	960	21304	960
4	<i>Qo'shko'pir tumani</i>	22036	900	21933	900	22106	900	22309	900	22845	900
5	<i>Urganch tumani</i>	23306	1560	23624	840	23780	1090	24419	1560	25379	1440
6	<i>Xozarasp tumani</i>	32100	1090	31387	990	31835	1090	32460	1090	33210	1090
7	<i>Xonqa tumani</i>	26516	1565	25980	1495	25724	1565	26030	995	26098	990
8	<i>Xiva tumani</i>	32073	1670	32583	1670	33400	1450	33979	1450	34268	1450
9	<i>Shovot tumani</i>	22089	1235	21582	970	21662	970	21497	985	21630	985
10	<i>Yangiariq tumani</i>	15995	650	15160	600	15133	600	15145	630	15185	630
11	<i>Yangibozor tumani</i>	10541	670	10737	640	11074	640	11541	640	11754	670

⁴⁰ Xorazm viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ma'lumotlari va viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



3.2.1-chizma: Xorazm viloyatida 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda sog'lomlashtirilgan bolalar sonining regression tahlili.

Mazkur ma'lumotlarni birlashtirgan holda ma'lumotlar bazasini (pooled data) yaratib ular o'rtasidagi korrelyatsiya bog'liqligini aniqlagan holda regression tenglamasini topdik.

$$y = 211.98 + 0.036 * X$$

$$se = (97.88) \quad (0.0042)$$

$$t = (2.1) \quad (8.54)$$

$$R^2 = 0.57$$

Bu yerda:

Y – oromgohlarda va sog'lomlashtirish maskanlarida xordiq chiqargan bolalalar soni;

X – viloyatdagi 7-14 yosh atrofidagi jami bolalar soni.

Yuqoridagi regressiya tenglamasidan ko'rishimiz mumkinki, viloyatdagi 7-14 yoshdagi bolalar soni bilan oromgoh va sog'lomlashtirish masakanlarida xordiq chiqargan bolalar o'rtasida musbat bog'liqlik mavjud. Bog'liqlik darajasini baholash maqsadida t statistika hamda R^2 ko'rsatkichlardan foydalanamiz. t statistikadan ko'rishimiz mumkinki modeldagi har bir koefitsent statistik jihatdan talabga javob beradi, ammo R^2 ko'rsatkichini 0.57 ga teng ekanligini ko'rishimiz

mumkin. Mazkur holat biz tahlil uchun asos qilib olgan ma'lumot bazamizga nisbatan yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi.

Mazkur model natijalariga asoslangan holda umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, viloyatdagi 7-14 yoshdagi bolalar sonini 100 taga oshishi dam olish va sog'lomlashtirish maskanlarida dam olayotgan bolalar sonini 3.6 taga oshishiga mos kelmoqda.

3.2.4-jadval

Xorazm viloyatida 2015-2016 yillarda statsionar turdagi oromgohlarda sog'lomlashtirilgan bolalar soni va ularga sarflangan mablag'lar.⁴¹

	Tumanlar	2015-yil holatiga jami		2016-yil holatiga jami	
		Bolalar soni (x)	Sarflangan mablag' (so'm) (y)	Bolalar soni (x)	Sarflangan mablag' (so'm) (y)
1	<i>Urganch shahar</i>	420	75106160	240	52024889
2	<i>Bog'ot tumani</i>	270	49356323	270	55768889
3	<i>Gurlan tumani</i>	300	53717597	300	59512889
4	<i>Qo'shko'pir tumani</i>	270	50315597	270	55768889
5	<i>Urganch tumani</i>	1100	187961521	1080	205935014
6	<i>Xozarasp tumani</i>	270	50315597	270	55768889
7	<i>Xonqa tumani</i>	995	159424451	990	184577553
8	<i>Xiva tumani</i>	800	141349564	800	146489268
9	<i>Shovot tumani</i>	655	117462571	655	130136882
10	<i>Yangiariq tumani</i>	270	50103752	270	55768889
11	<i>Yangibozor tumani</i>	640	114612586	670	130720859

Hududdagi bolalarni dam olish va xordiq chiqarish imkoniyatlarni oshirish hamda ko'proq sondagi bolalarni qamrab olish maqsadida kundizgi va statsionar ko'rinishdagi xordiq chiqarishga moslangan oromgoh va sog'lomlashtirish

⁴¹ Xorazm viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ma'lumotlari.

maskanlari tashkil qilindi. Bu o'z navbatida moliyaviy jihatdan ham foydali bo'lib har bir bola uchun sarflanadigan pul miqdori kamayadi. Buni inobatga olgan holda biz viloyat hududlari kesimida har bir turdagi xordiq chiqarishda bolalar sonini bir birlikka oshirish sarflanayotgan xarajatni qanchaga oshishini regression bog'liqligini aniqlaymiz.

Statsionar shaklda xordiq chiqarishni tashkil qilgan holda viloyat hududlarilaridagi sarflangan mablag' hamda bolalar soni regression tenglamasini keltirib o'tamiz.

$$y = 181788 * X$$

$$se = (2643)$$

$$t = (68.77)$$

$$R^2 = 0.99$$

Bu yerda:

Y – statsionar ko'rinishda xordiq chiqargan bolalarga sarflangan mablag' so'mda.

X – oromgohlarda va sog'lomlashtirish maskanlarida statsionar ko'rinishda xordiq chiqargan bolalalar soni;

Bu yerdan ko'rishimiz mumkinki, viloyatda statsionar ravishda xordiq chiqarayotgan bolalar sonini birga oshirish uchun qo'shimcha 181788 so'm lozim bo'ladi. Mazkur ko'rsatkich har bir viloyat hududida ichki imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin.

Biz bolalar sonini oshirish cheklangan mablag'lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish maqsadida kunduzgi shakldagi xordiq chiqarishni tashkil qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda har bir bola uchun sarflanadigan pul mablag'i kamayadi, boshqa tomondan mazkur mablag' evaziga ko'proq bolani jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

**Xorazm viloyatida 2015-2016 yillarda kunduzgi shakldagi oromgohlarda
sog'lomlashtirilgan bolalar soni va ularga sarflangan mablag'lar.⁴²**

		2015-yil holatiga jami		2016-yil holatiga jami	
	Tumanlar	Bolalar soni (x)	Sarflangan mablag' (so'm) (y)	Bolalar soni (x)	Sarflangan mablag' (so'm) (y)
1	<i>Urganch shahar</i>	460	53598466	660	22680000
2	<i>Bog'ot tumani</i>	630	68896484	630	22050000
3	<i>Gurlan tumani</i>	660	72451205	660	23100000
4	<i>Qo'shko'pir tumani</i>	630	68896484	630	22050000
5	<i>Urganch tumani</i>	360	39090463	360	12600000
6	<i>Xozarasp tumani</i>	820	87107190	820	28700000
7	<i>Xiva tumani</i>	650	76011190	650	22750000
8	<i>Shovot tumani</i>	330	35535742	330	11550000
9	<i>Yangiariq tumani</i>	360	39090463	360	12600000

Biz viloyatimiz hududlaridagi ikki yillik ma'lumot asosida kunduzgi shaklda dam olayotgan bolalar sonini bir birlikka oshirish uchun qo'shimcha lozim bo'lgan mablag' summasini aniqlab o'tamiz. Buni uchun quyida keltirilgan regressiya tenglamasidan foydalanamiz.

$$y = 71152.6 * X$$

$$se = (9144)$$

$$t = (7.78)$$

$$R^2 = 0.78$$

Bu yerda:

Y – kunduzgi ko'rinishda xordik chiqargan bolalarga sarflangan mablag' so'mda.

⁴² Xorazm viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

X – oromgohlarda va sog'lomlashtirish maskanlarida kunduzgi ko'rinishda xordiq chiqargan bolalalar soni;

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki kundizgi shakldagi xordiq chiqarayotgan bolalar sonini bir birlikka oshirish uchun qo'shimcha 71152 so'm mablag' lozim bo'ladi. Yuqorida amalga oshirilgan tahlil va hisob-kitob natijalariga asoslangan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki kundizgi shaklda xordiq chiqarayotgan har bir bolaga sarflangan mablag' bilan stantsionar ravishda xordiq chiqarayotgan bolaga sarflanayotgan mablag'lar nisbati 1:2.55 ni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinadiki statsionar ravishda xordiq chiqargan bolaga sarflangan mablag' evaziga kundizgi shaklda 2.55 bolani xordiq chiqarishini tashkil qilish imkoniyati mavjud. Biz bu yerda hisob-kitobni viloyat miqyosidagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan amalga oshirdik. Ya'ni tumanlarda bu nisbat biz keltirgan miqdorga nisbatan biroz yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

3.3. Xorazm viloyati aholisi turmush faravonligini oshirishda sotsial turizmni rivojlantirish istiqbollari

O'zbekistonda sotsial turizm ichki turizmning asosiy tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi, ya'ni ichki turistlarning katta qismini ota-onalar yoki boshqa jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobiga oromgohlarda dam olayotgan bolalar, tarixiy shahar va ziyoratgohlarga ekskursiyada ishtirok etadigan bolalar va o'smir yoshlar, turli davlat va nodavlat jamg'armalari hamda homiylar mablag'lari hisobiga turistik sayohatlariga boruvchi mahalliy aholi ichki turistlarning ko'pchiligini tashkil etadi.

Ichki turizmni, shu bilan birgalikda sotsial turizmni jonlantirish va uning milliy iqtisodiyotimizga qo'shayotgan hissasini oshirish uchun katta kuch talab etiladi. Buning uchun dastlab milliy ichki turizmni rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Umuman olganda, turizm amaliyotida, ichki turizmni rivojlantirishning uchta kontseptual modeli mavjud:

- ijtimoiy soha byudjetlari tomonidan ichki turizmni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish bo'lib, mamlakatning yuqori iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasida, sotsial sohani muhim darajada qo'yilishida, turizm esa xalq xo'jaligining yetakchi sohalardan biri sifatida belgilanganida amalga oshirilishi mumkin;

- ichki turizmni davlat tomonidan, nodavlat jamg'armalari, turistik korxonalari va manfaatdor tashkilotlar tomonidan bevosita va bilvosita ulushli tarzda qo'llab-quvvatlashning yo'llarini izlash bo'lib, moliyalashtirish asosan iste'molchilar bilan bir qatorda turli jamg'arma va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu modelda davlat ichki turizm rivojini faqatgina bilvosita qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni mamlakatning turistik imidjini kutarish va saqlash, me'yoriy-huquqiy asoslarni yaratish, maxsus soliq tizimini joriy qilish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- ichki turizmni «turizm turizmni rivojlantiradi» tarzida rivojlantirish bo'lib, u turizm sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi 10-30% bo'lganda amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu modellarni sotsial turizmni rivojlantirishda ham qo'llash mumkin.

Turmahsulotlarni ishlab chiqishda xaridorlarning quyidagi xususiyatlari inobatga olinadi:

- yoshi va ma'lumoti;
- sayohat qilish istagining borligi;
- kimlar bilan sayohatga chiqishga harakat qilishi yoki qanday guruhlarda sayohat qilishi;
- sayohat qilish tajribasiga egaligi va shu kabilar.

Mahalliy aholining sayohatlari ko'p hollarda jamoaviy tarzda tashkil etiladi. Sayohatning qanday maqsadlarda va qanday ob'ektlarga tashkil etilishiga qarab sayohat qiluvchilar jamoasi belgilanadi, ammo 60-70 foiz sayohatlarda bu tarkib qarindoshlar, ya'ni bir oila vakillaridan iborat bo'ladi.

Insonlarning dam olish turlari, ularni amalga oshirishga yordam beruvchi maskanlar haqida qay darajada habardorligi, ushbu maskanlar xizmatlaridan

foydalanishlariga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pchilik mahalliy aholi vakillari mahalliy dam olish maskanlari haqida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Mahalliy turfirmalar ham e'tiborlarini chet el (xalqaro) turistlarni qabul qilishga qaratganlar. Statistik ma'lumotlarga qaraganda hozirgi vaqtda O'zbekistonda mahalliy turizmga nisbatan xalqaro turizm hissi yuqori.

Viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi, barcha bo'g'in kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan viloyat Muvofiqlashtiruvchi guruhi, boshqarma, idora va korxonalar bilan hamkorlikda 2016 yil yozgi sog'lomlashtirish va dam oldirish mavsumini tashkil etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

2016 yil yozgi mavsumida viloyat bo'yicha jami 31 ta bolalar oromgohlari faoliyat ko'rsatishi va ularda 11240 nafar, shu jumladan, 15 ta statsionar oromgohlarda 6140 nafar, 16 ta kunduzgi oromgohlarda 5100 nafar bolalarni sog'lomlashtirish belgilandi. 2015 yida Xorazm viloyati bo'yicha bolalar oromgohlarida jami 4900 nafar o'quvchi yoshlar xordiq chiqargan bo'lib, ularga kasaba uyushmalari tomonidan jami 867 377 584 so'm mablag' sarflangan. Shu bilan birga 2016 yil kasaba uyushmalari birlashmasi tomonidan 955 269 681so'm mablag' 4900 nafar bolani dam olishi va sog'lomlashtirilishi uchun sarflangan. (3.2.1-jadval).

Mazkur jadvalda shuni ko'rish mumkinki, Xorazm viloyatida bolalar oromgohlariga kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag'lar yildan yilga ko'payib bormoqda.

Xorazm viloyatining barcha tumanlaridagi yozgi dam oldirish va sog'lomlashtirish oromgohlarida "Ma'naviyat va ma'rifat xonalari"ni zarur jihozlar bilan ta'minlash, "Sog'lom ona va bola yili"ni aks ettiruvchi turli mavzulardagi plakatlari, bannerlar, ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishdagi shiorlar, ko'rgazmali vositalar bilan bezatish, sport jihozlari bilan ta'minlash choralari ko'rilgan.

3.3.1-jadval

2015-2016 yillarda Xorazm viloyati bo'yicha bolalar oromgohlariga kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag'lar⁴³

№	Shahar, tumanlar	2015		2016	
		Bolalar soni	sarf mablag' miqdori.	Bolalar soni	sarf mablag' miqdori.
1	Urganch shahar	-	-	-	-
2	Yangibozor	400	68 847 974	400	76 239 993
3	Gurlan	300	53 717 597	300	59 512 889
4	Shovot	655	117 462 571	655	130 136 882
5	Qo'shko'pir	270	50 315 597	270	55 768 889
6	Xiva	800	141 349 564	800	146 489 268
7	Yangiariq	270	50 103 752	270	55 768 889
8	Xonqa	365	62 405 734	360	71 084 242
9	Bog'ot	270	49 356 323	270	55 768 889
10	Xozarasp	270	50 315 597	270	55 768 889
11	Urganch tumani	1100	187 961 521	1080	205 935 014
12	Sotib olinadigan yo'llanmalar	200	35 541 354	225	42 795 838
	Viloyat bo'yicha	4900	867 377 584	4900	955 269 681

O'quvchilarining yozgi ta'til davrini mazmunli o'tkazish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar asosida bolalarning vatanparvarlik, umuminsoniy va milliy qadryatlarimiz ruhida tarbiyalash, ularda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan "Yoz o'tmoqda soz", "Bola kulgusi olam kulgusi", "Oromgoh-bolalarga hamroh" mavzularida uslubiy qo'llanmalar tayyorlanib barcha oromgohlarga yetkazildi va shu asosida viloyatdagi barcha oromgohlarda kitobxonlik kechalari, sport musobaqalari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, "Sog'lom bola – yurt kelajagi" shiori ostida sport musobaqalari o'tkazilgan.

⁴³ Viloyat kasaba uyushmalari tashkiloti birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2016 yil yoz mavsumida **statsionar** oromgohlarda **6191** nafar, **kunduzgi** oromgohlarda **5101** nafar, **jami 11292** nafar bolalar sog'lomlashtirilib reja 100,4 foizga bajarildi.⁴⁴

“Mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilaridan 60 nafari Toshkent viloyatidagi oromgohlarda, 45 nafari Xiva tumanidagi “Alpomish” oromgohida, viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi “Mahalla” xayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda kam ta'minlangan oilalarning farzandlaridan 84 nafari bepul, jamoa shartnomalari orqali imtiyozli va bepul tarzda ehtiyojmand oilalarning 2200 dan ortiq farzandlari sog'lomlashtirildi.

3.3.2-jadval

2015-2016 yillarida Xorazm viloyati bo'yicha bolalar oromgohlariga xokimliklar, “Maxalla”jamg'armasi, homiylar tomonidan ajratilgan mablag'lar⁴⁵

№	Shahar, tumanlar	2015		2016	
		Bolalar Soni	sarf mablag' miqdori.	Bolalar Soni	sarf mablag' miqdori.
1	Urganch shahar	880	128 704 625	900	74 704 889
2	Yangibozor	240	45 764 612	270	54 480 866
3	Gurlan	660	72 451 205	660	23 100 000
4	Shovot	330	35 535 742	330	11 550 000
5	Qo'shko'pir	630	68 896 484	630	22 050 000
6	Xiva	650	76 011 189	650	22 750 000
7	Yangiariq	360	39 090 463	360	12 600 000
8	Xonqa	630	97 018 718	630	113 493 311
9	Bog'ot	630	68 896 484	630	22 050 000
10	Xozarasp	820	87 107 189	820	28 700 000
11	Urganch tumani	360	39 090 463	360	12 600 000
12	Sotib olinadigan yo'llanmalar	100	18 690 951	100	17 643 680
	Viloyat bo'yicha	6290	777 258 124	6340	415 498 746

⁴⁴ Xorazm viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi ma'lumotlari.

⁴⁵ Viloyat kasaba uyushmalari tashkiloti birlashmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Shuningdek, viloyat oromgohlariga hokimliklar, “Mahalla” jamg’armasi va homiylar tomonidan moliyalashtirish tizimi takomillashtirilib borilmoqda, jumladan, 2015 yilda viloyatdagi mavjud yozgi dam olish bolalar oromgohlariga hokimliklar, “Mahalla” jamg’armasi va homiylar tomonidan 777 258 124 so’m mablag’ ajratilgan. 2016 yilda viloyatdagi mavjud yozgi dam olish bolalar oromgohlariga hokimliklar, “Mahalla” jamg’armasi va homiylar tomonidan 415 498 746 ajratilgan.

Respublikamizda so’nggi yillarda sotsial turizmni rivojlantirishga qaratilgan ko’pgina chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O’zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi ushbu sohani rivojlantirishga alohida qaratgan. Ayniqsa, sotsial turizni moliyalashtirish, ya’ni bolalar oromgohlariga kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag’lar buning yaqqol misolidir. So’nggi yillarda Xorazm viloyati kasaba uyushmalari tomonidan bolalar oromgohlariga yetarli darajada mablag’ ajratishga alohida e’tibor berilmoqda.

Har bir insonda sayohat qilish ko’nikmasi yoshligidan, aniqrog’i bolaligidan shakllanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bir marotaba uydan uzoqda dam olgan, sayohat qilgan inson, ma’lum muddatlarda yana sayohat qilish istagida bo’lishadi. Dastlabki sayohat qilish ko’nikmalari quydagi hollarda o’rttirilishi mumkin:

- sinfdoshlar yoki maktabdoshlari bilan bir kunlik ekskursiyalarga borish;
- oila a’zolari bilan tog’ yoniga, tabiat qo’yniga, uzoq hududlardagi qarindoshlarnikiga mehmondorchilikga borish;
- bolalar oromgohlarida dam olishlari va shu kabilar.

Chet ellarda tashkil etadigan oromgohlarning reklama-targ’ibot vositalarida namoyish etadigan lavhalardan ma’lumki, ushbu oromgohlarda turli o’rinishdagi, turli mavzularga bag’ishlangan suratlar bilan bezatilgan binolarda bolalarni qabul qilish an’anaviy tarzda amalga oshiriladi. Oromgohlarda bolalarni joylashtiruv vositalariga ikki qavatli ixtisoslashgan binolar, kotedjlar, palatkalar, ochiq ayvonlarni (besetkalarni) kiritish mumkin.

O’zbekistonda 7-14 yoshdagi bolalarni yozgi oromgohlarda dam olish imkoniyatlari mavjud bo’lsada, ulardan kattaroq bo’lgan o’smir-yoshlar turizmi

uchun shart-sharoitlar, kerak bo'ladigan infratuzilma deyarli mavjud emas. Ammo aynan o'smir-yoshlarda o'zaro muloqotga, sayru-sayohatga, turli yangiliklarni olishga intilish, bolalarga nisbatan yuqoriroqdir.

Umuman olganda umumjahon turizm amaliyotida yoshlar turizmi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turganligi sababli, turfirmalardan yoshlarga xos turmahsulot yaratishni talab etadi. Afsuski O'zbekiston hududida yoshlar turizmiga xos industriya yetarlicha tashkil etilmagan. Mahalliy sharoitlarda yoshlar turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlab olish maqsadida bir qator savollar bilan murojaat qilindi.

Nima sababdan mahalliy yoshlar ko'proq chet elga sayohat qilishni istasharkan? Ularning chet eldagi yoshlar turizmiga xos xususiyatlardan qay darajada tasavvurlarga ega bo'lishlarini aniqlash maqsadida respondentlarga bir qator savollar bilan murojaat qilindi.

Yoshlarning sayohatlarda kam ishtirok etishini ko'proq behabarligi bilan bog'lash mumkin. Yoshlar o'zlari uchun mo'ljallangan ko'ngilochar maskanlarning mavjudligi, turli imtiyoz va chegirmalar haqida ma'lumotlarning gazeta, televidenie, radio va internetdan olishni istasharkan.

Sotsial turizmga jismoniy va aqliy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlarning turistik sayohatlari ham kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi tomonidan 2-jahon urushi ishtirokchilari va ularga tenglashtirilgan fuqarolar, mehnat fahriylari, pensionerlarga imtiyozli asosda belgilangan muddatlarda Vazirlik tizimidagi sanatoriylar va dam olish uylariga bepul yo'llanmalar berish tizimi mavjud.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning muhim tarkibiy qismlaridan biri sotsial turizm sohasini rivojlantirishda kasaba uyushmalari tashkilotlarining muhim o'rni bor. Bizning fikrimizcha, yaqin kelajakda Xorazm viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlarida turizmni rivojlantirish bo'yicha quyidagicha kompleks chora tadbirlar amalga oshirish zarur:

- Federatsiya Kengashi tasarrufida turistik xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tuzish bo'yicha hujjat loyihalarini tayyorlash va ko'rib chiqish uchun kiritish;
- Sanatoriya-kurortlar boshqarmasi bazasida tibbiy turizmni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha yagona o'quv uslubiy markazi faoliyatini yo'lga qo'yish;
- Davolash profilaktika markazida chet ellik turistlar uchun diagnostika maslahat davolash va sog'lomlashtirish tibbiy xizmatlarini ko'rsatishni joriy etish;
- Jamoa shartnomalari va tarmoq kelishuvlariga kiritish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnatkashlari va ularning oila a'zolaridan kamida 40 ming nafarining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Marg'ilon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi kabi tarixiy shaharlarga jamoaviy sayohatlarini tashkil etish;
- O'quv markazida tashkil etiladigan o'quv dasturlariga turizm bo'yicha mutaxassislarni jalb etgan holda, ma'ruza soatlarini kiritish, tinglovchilarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatining tarixiy va me'moriy obidalari, diqqatga sazovar joylarni tashrifini tashkil etish;
- Sanatoryaga kelgan dam oluvchilarning ushbu sanatoriy joylashgan viloyat va shaharning diqqatiga sazovor joylari, tarixiy obidalari, ziyoratgohlari, teatr va muzeylariga sayohatlarini uyushtirish;
- Sanatoriya-kurort majmualari ob'ektlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish, servis xizmatlarini yaxshilash;
- Sanatoriy tibbiy xodimlarini malaka oshirish va tajriba o'rganish uchun Rossiya va Chexiya mamlakatlariga xizmat safarlariga yuborish;
- Mamlakatimizda sotsial turizmni rivojlantirishning xjuquqiy-meyoriy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur;
- Respublika va xududiy darajada sotsial turizm boshqaruv tizimini qaytadan ko'rib chiqish va takomillashtirish;
- Sotsial turizmni shakillantirish mexanizmlarini takomillashtirish (maqsadli investitsion resurslarni shakillantirish);

III-BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan 2013 yil 20-martda qabul qilingan "Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish" Dasturi, "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks" Dasturlari va hukumatimiz tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, mamlakatimiz sayyohlik salohiyatining jahon turizm yarmarkalarida muntazam namoyish etilishi, Toshkent shahrida an'anaviy "Buyuk ipak yo'li bo'ylab turizm" yarmarkasining muntazam o'tkazib kelinayotgani, Xorazm vohasini boshqa turistik markazlar bilan tutashturuvchi yo'l infratuzilmasining yaxshilanayotganligi, turizm xizmatlari sifatining o'sib borayotganligi kabi omillar viloyatda turizmning izchil rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berildi.

2. Respublikamizda so'nggi yillarda sotsial turizmni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina chora tadbirlar amalga oshirilyotgani eng ijobiy natijalardan biridir. Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan va bu borada ko'pgina dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sotsial turizni moliyalashtirish, ya'ni bolalar oromgohlariga kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag'lar buning yaqqol misolidir. So'nggi yillarda Xorazm viloyati kasaba uyushmalari tomonidan bolalar oromgohlariga yetarli darajada mablag' ajratishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu ishlarning barchasi Xorazm viloyati yoshlarining sog'lomlashtirilishiga, ularning yozgi mavsumni mazmunli o'tishiga yordam beryapdi.

3. O'zbekistonda yozgi oromgohlarda dam olish imkoniyatlari 7-14 yoshdagi bolalarda mavjud bo'lsada, ulardan kattaroq bo'lgan o'smir-yoshlar turizmi uchun shart-sharoitlar, kerak bo'ladigan infratuzilma deyarli mavjud emas. Ammo aynan o'smir-yoshlarda o'zaro muloqotga, sayru-sayohatga, turli yangiliklarni olishga intilish, bolalarga nisbatan yuqoriroqdir. Umuman olganda umumjahon turizm amaliyotida yoshlar turizmi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turganligi sababli, turfirmalardan yoshlarga xos turmahsulot yaratishni talab

etadi. Afsuski O'zbekiston hududida yoshlar turizmiga xos industriya yetarlicha tashkil etilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Turizmning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rnini belgilaydigan bo'lsak, uning ijtimoiy tomonlarini, inson hayoti, turmush darajasi, shaxs sifatida shakllanishiga ta'sirini chetlab o'tmasligimiz kerak bo'ladi. Shubhasizki, sotsial turizmning rivoji ham mamlakat aholisining turmush tarziga, ham hudud iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ijtimoiy beqarorlikning pasayishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mavjud va to'liq foydalanilmaydigan turistik resurslarni rivojlanishi, mamlakat obro'-e'tiborining ortishida namoyon bo'lishi asoslab berildi.

2. Sotsial turizm o'z ichiga bolalar, o'smir-yoshlar, talabalar, jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan odamlarning turistik sayohatlarini qamrab oladi. Ularning o'ziga xos tomonlari joylashuv vositalari va tashkil etish tizimlarida hamda xizmatlarda namoyon bo'ladi. Masalan, joylashuv vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bolalar oromgohlari (lagerlar), xostellar (yoshlar uchun yotoqxona tipidagi mexmonxona), sanatoriylarda (sog'lomlashtirish va rekreatsion muassasalar) aks ettirilishi ochib berildi.

3. Sotsial turizm – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining, davlat byudjeti, davlat va nodavlat jamg'armalari, homiylar, turizmga faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar hamda jismoniy shahslar tomonidan faqat ijtimoiy ehtiyojlarga ajratilgan mablag'laridan moliyalashtiriladigan turistik sayohatlarning barcha turlari hisoblanadi.

4. Sotsial turizm faoliyatida umumqabul qilingan xalqaro atamalarga asosan, uning mohiyatini, faoliyat doirasini va mazmunini ifodalovchi quyidagi tushunchalar ishlatiladi: sotsial turizm, sotsial turizm sohasidagi turistik faoliyat, sotsial tur, sotsial turni xarid qilish qobiliyatining bazali standartlari, qo'shimcha to'lovli xizmatlar, sotsial tur ishtirokchisi, sotsial turizm tashkiloti, sotsial turizm ishtirokchisining a'zolik kartasi, marshrut kitobchasi (varaqa), ta'til cheki.

5. Fransiya'dagi Agence Nationale pour les Sejours Vacances (ANSV) (Miliy dam olishlarni tashkilashtiruvchilar agentligi) 1982 yilda tashkil etilgan va o'sha davrdan boshlab turizm siyosatidagi ijtimoiy vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Bu agentlik iloji boricha ko'proq turistik sayohatlarda ishtirok etishni ta'minlash va viloyatlar orqali turizmni tarqalishiga yordam berish maqsadida hamkorlik ishlarini olib boradi. Bu agentlik 21 mingta tashkilotga ega bo'lib, uning faoliyatiga 135 turizm ob'ektlari xizmat ko'rsatishga jalb qilingan.

6. Ijtimoiy jamg'arma – fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida ta'sis etilgan tashkilot. Ijtimoiy jamg'armalar hayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlab tuziladi, ularning a'zolari bo'lmaydi. Ijtimoiy jamg'armaning rahbar organini ta'sischi va qatnashchilar tomonidan qurultoy yoki umumiy majlisda saylash yo'li bilan tuzilishi asoslab berildi.

7. Sotsial turizm ishtirokchilari asosan mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar, o'smirlar, qariyalar, nogironlar va doimiy moliyaviy daromadga ega bo'lmagan yoshlar hamda kam ta'minlangan odamlardan iborat.

8. Bolalar turizmi deganda asosan bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohlar faoliyati va ularda bolalarning dam olishi tushuniladi. Turli normativ hujjatlarda belgilanganidek, bolalar oromgohlarida 7-14 yoshgacha bo'lgan bolalar dam olishi mumkin. Ammo ko'pincha 10-14 yoshdagilar bu oromgohlarda dam olishga ko'proq jalb qilinadi. Qishloq aholisining 12-14%ini 10-14 yoshdagi bolalar tashkil etsa, shahar aholisining 10-11%ini tashkil etadi. Ammo shahar va qishloq aholisining 10-14 yoshdagilar ulushlari nisbatini 31% va 69%larni tashkil etadi. Yozgi oromgohlarda esa ko'proq shaharda istiqomat qiluvchi bolalar dam oladilar.

9. Bolalar o'z moliyaviy manbalariga ega emasligi tufayli sayohatni mustaqil amalga oshira olmaydi. Shuning uchun bolalar turizmi davlat, korxona (tashkilotlar), ota-onalari va homiylar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. Rivojlangan mamlakatda ham bolalar turizmini yanada rivojlantirish uchun katta miqdorlarda (boshqa turizm turlariga nisbatan) dotatsiyalar ajratiladi.

Ular asosan bolalarni sog'lomlashtirish va ularning dam olishiga mo'ljallangan yozgi oromgohlarning moddiy-texnik bazasini shakllantirish va rivojlantirishga sarflanadi.

10. AQSh bolalar yozgi oromgohlarning rivojlangan tizimiga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi. Unda oromgohlarning quyidagi turlari mavjud: shahsiy oromgohlar (private camps), ko'maklashuvchi (mustaqil oilaviy) oromgohlar (independent agency family owned camps), qiz yoki o'g'il bolalar uchun skaut oromgohlari (girl boy scout camps guides), kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun oromgohlar (disadvantaged camps), kunduzgi oromgohlar (day camps), ixtisoslashtirilgan oromgohlar, - jismoniy yoki aqliy nuqsonlari mavjud bolalar uchun oromgohlar hisoblanadi.

11. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan 2013 yil 20-martda qabul qilingan "Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish" Dasturi, "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks" Dasturlari va hukumatimiz tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, mamlakatimiz sayyohlik salohiyatining jahon turizm yarmarkalarida muntazam namoyish etilishi, Toshkent shahrida an'anaviy "Buyuk ipak yo'li bo'ylab turizm" yarmarkasining muntazam o'tkazib kelinayotgani, Xorazm vohasini boshqa turistik markazalar bilan tutashturuvchi yo'l infratuzilmasining yaxshilanayotganligi, turizm xizmatlari sifatining o'sib borayotganligi kabi omillar viloyatda turizmning izchil rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berildi.

12. Respublikamizda so'nggi yillarda sotsial turizmni rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina chora tadbirlar amalga oshirilyotgani eng ijobiy natijalardan biridir. Xususan, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan va bu borada ko'pgina dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sotsial turizni moliyalashtirish, ya'ni bolalar oromgohlariga kasaba uyushmalari tomonidan ajratilgan mablag'lar buning yaqqol misolidir. So'nggi yillarda Xorazm viloyati kasaba uyushmalari tomonidan bolalar oromgohlariga yetarli darajada mablag' ajratishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu

ishlarning barchasi Xorazm viloyati yoshlarining sog'lomlashtirilishiga, ularning yozgi mavsumni mazmunli o'tishiga yordam beryapdi.

13. O'zbekistonda yozgi oromgohlarda dam olish imkoniyatlari 7-14 yoshdagi bolalarda mavjud bo'lsada, ulardan kattaroq bo'lgan o'smir-yoshlar turizmi uchun shart-sharoitlar, kerak bo'ladigan infratuzilma deyarli mavjud emas. Ammo aynan o'smir-yoshlarda o'zaro muloqotga, sayru-sayohatga, turli yangiliklarni olishga intilish, bolalarga nisbatan yuqoriroqdir. Umuman olganda umumjahon turizm amaliyotida yoshlar turizmi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turganligi sababli, turfirmalardan yoshlarga xos turmahsulot yaratishni talab etadi. Afsuski O'zbekiston hududida yoshlar turizmiga xos industriya yetarlicha tashkil etilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 1999 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi "O'zbekturizm Milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1992 y. 28 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1995 y. 3 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infrastrukturasini barpo qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1995 y. 4 iyun.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sayyohlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1998 y. 9 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish" Davlat dasturi. 2013 yil 20 mart.
7. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xorazm haqiqati, 2015 yil 17 yanvar, № 5.

Prezident asarlari

8. Karimov I. A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O‘zbekiston, 2010 yil
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009 yil
10. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda T.: O‘zbekiston. 1999.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T.: O‘zbekiston. 1995 .

Prezident farmonlari va qarorlari

12. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonun // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1999 yil 20 avgust.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turizm faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi Qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2003 y 12 noyabr
14. «2006-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish xaqida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2006 y.

Kitob va turkum nashrlar.

15. Alieva M.T., Umarjonov A. Turistlik mamlakatlar iqtisodiyoti.-T.: Moliya 2005, -339 bet.
16. Qudratov G‘.X., Tuxliev I.S. «Turizm iqtisodiyoti». SamISI., S.: 2007 y.
17. Mirzaev M.A. «Turizm asoslari». Ma’ruzalar matni T.: 2005
18. Pardaev M.Q. «Turizm asoslari» (Ma’ruzalar matni) Samarqand 2006 y.
19. Tuxliev I.S. «Turizm asoslari». SamISI, S.: 2008 y.
20. Tuxliev N. «O‘zbekistonda turizm biznesni tashkil qilish menejmenti » T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006 g.

21. Tuxliev N., «Национальной модели развития туризма» Т.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006 г.
22. Hamidov O.X. «Transport servisini tashkil qilish» Uslubiy qo‘llanma Т.: 2007. TDIU
23. Хасанова Л.Г. «Основы туризма». Учебно-методический комплекс. – Т.: 2006
24. Чудновский А.Д. Туризм и гостиничное хозяйство М.: Юркинга. 2005
25. Яковлениа А. Экономика и статистика туризма. Учебное пособие. М.: 2005 - 368 с.
26. Nazarova. G.G. va boshqalar Turizm huquqi. –Toshkent. Talqin, 2003.

Internet saytlari:

- www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat portali
- www.interunion.ru
- www.world-tourism.org
- www.wttc.org
- <http://www.wto-marketing.ru>
- <http://www.tourism.uz>
- <http://www.tour.uz>
- <http://www.advantour.com/rus/>
- <http://www.tours.ru/country/uz>